

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

UDK
qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

JUMANIYAZOV RASUL O‘TEMURATOVICH

**“OGAHIYNING LIRIK QAHRAMON
YARATISH MAHORATI”**

Mutaxassislik: 5A141102 - o‘zbek adabiyoti
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:	p.f.n., dots. U.Seytjanova
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots K.Tashanov
Ilmiy rahbar:	f.f.d., prf. K.Quramboev

NUKUS – 2012

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. Ogahiy lirikasida obrazlar rang-barangligi.....	11
II BOB. Ogahiy she'riyatida oshiq va ma'shuqa obrazlari talqini..	34
III BOB. Lirik qahramon yaratishda poetik mahorat.....	55
XULOSA.....	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	78

K I R I S H

Ogahiy o'zbek adabiyotining XIX asr birinchi yarmida o'tgan yirik namoyandalardan biridir. Zamonasining ilg'or farzandi bo'lgan Ogahiy har taraflama kamol topgan ijod egasi edi. Bu uning bizgacha yetib kelgan katta merosidan ko'rinadi. Ogahiyning she'riy ijodi uning o'zi tomonidan 1852 yilda tuzilgan "Ta'vizul oshiqin" devonida to'plangan bo'lib, bu devon qariyb 18 ming misradan (9 ming baytdan) iborat. Devonda o'zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan poeziyaning hamma janrlaridan juda yaxshi namunalar keltirilgan.

Ogahiy qo'shni fors-tojik va ozarbayjon xalqlari adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z xalqiga yetkazdi. Ogahiy tomonidan tarjima qilingan asarlarning soni 20 ga yaqin bo'lib, ular ichida Nizomiy, Sa'diy, Jomiy va boshqalarning ijodidan namunalar bor. Ogahiy tarjima qilgan shoirlar va ularning asarlari asrlar o'tsa-da, ularni yetishtirgan xalqlar madaniyati tarixida, ko'plari esa butun dunyo madaniyati tarixida hozirgacha o'z qimmatini saqlamoqda; bu asarlar nasldan-naslga o'tib kelmoqda. Bu hol bizga Ogahiyning zehni o'tkir, didi baland, dunyoqarashi ilg'or shaxs bo'lganidan guvohlik beradi. Ogahiy o'zining mohirona tarjimalari bilan o'zbek xalqi madaniyati va adabiyoti xazinasiga katta hissa qo'shganligi shubhasizdir. Ayni zamonda, bu tarjimalar Ogahiy dunyoqarashining shakllanishi, uning shoir va olim sifatidagi ijodiy ishi uchun ulug' maktab bo'lgan.

Nihoyat, Ogahiy saroy o'rganilish tarixi shaklida yozilgan, o'z zamonasida bo'lib o'tgan juda ko'p hodisalardan guvohlik beruvchi Xorazm xonligi tarixiga oid beshta tarixiy asar yozib qoldirgan. Ana shunday barakali ijodi bilan Ogahiy bizning oldimizda juda sermahsul ijodchi, o'z xalqi madaniyati, adabiyoti uchun katta xizmat qilgan siymo bo'lib gavdalanadi. Shubhasiz, Ogahiy merosi o'zbek xalqi adabiyoti tarixida o'ziga tegishli o'rinni egallaydi.

Shu davrda barcha xalqlar, shu jumladan O'zbekiston xalqlari juda uzoq zamonlar feodalizm tuzumi zulmi ostida ezilib, feodalizmni himoya qiluvchi islom

dini va shu tuzum tug'dirgan behisob, turli xilda ko'rinuvchi xurofat, taassubning ruhiy quli bo'lib keldilar.

Hamma dinlarga o'xshab, islom dini mohiyatida ham hokim sinflarga xizmat qilish g'oyasi yotadi.

Islom dini dastlab mavjud tuzumning barqarorligini – abadiyligini tasdiqlash, bu qarashni barcha mehnatkash omma ong—tushunchasiga singdirish vazifasini bajaradi. Shu maqsadda dunyodagi hamma hodisa “taqdir”-xudoning amri bilan vujudga keladi, deb ta'lim beradi. Bu qarashga ko'ra birovning boyligi, gadoyligi, birovning shoh, fuqaro bo'lishi-hammasi taqdiri azalda yozilgan qismat. Buni o'zgartirishga odam bolasi qodir emas. Bu o'ta ketgan ta'sirli qarash faqat ekspluatatsiya qiluvchi sinflar hukmronligini saqlashga xizmat etadi, hammani shunga ko'ndirishga urinadi. Ammo ochlik, yalong'ochlik, yer-suvsizlik keng ommaga har kun, har soat o'zining dahshatli zarbini yetkazib turadi. Bu hodisa keng ommada hayotdan, turmushdan, tuzumdan norozilik tuyg'u-tushunchasini uyg'otmay iloji yo'q.

Bunga qarshi islom dogmasi: “Bu dunyo – yolg'onchi dunyo, bu dunyoda kishi qancha xoru- zor bo'lsa, narigi dunyoda kishi jannatda farovon yashaydi. U dunyo-abadiy dunyo, u dunyoda o'lmoq yo'q”, - kabi afsonalarni to'qib, mehnatkashlar ommasidagi uyg'onish, turmushini yaxshilash uchun intilish, tuyg'u, tushunchalarni yo'q etishga xizmat qiladi. O'zbek xalqi o'tmishidagi feodalizm jamiyatida hukm surgan boshqa barcha xil axloq qoidolari faqat ana shunga xizmat qilgan. Ommaning ruhiga ta'sir ko'rsatuvchi maktab, machit, madrasalar kabi vositalar yordamida kecha-kunduz yoshu qari tomonidan olib borilgan xalq tushunchasini zaharlovchi shu tashviqot natijasida jamiyat ayrim shaxsning dunyodagi orzu-havasi, tuyg'ulari o'sishiga hech qanday o'rin qoldirilmagan; odam bu foni dunyo bilan qiziqmasligi, butun borlig'ini, bu dunyodagi barcha ishlarini ham “kelajak dunyodagi” rohatli turmushga erishuv maqsadini ko'zlab olib bormog'i zarurligi uqtirilgan. Feodalizm jamiyati axloq qoidalarining hech kim tomonidan tartibga solinmmagan, jamiyatda ommani qullikda tutishda nihoyatda dahshatli kuch bo'lgan “gunoh”, “savob” tushunchalari hukm surgan.

Shular natijasida shaxs, keng mehnatkash omma hech narsa to'g'risida andisha qilmaydigan, dunyo to'g'risida, o'z turmushi to'g'risida o'ylamaydigan mute ishchi kuchi, qulga aylangan.

Ammo mehnatkashlar ommasi qanday og'ir sharoitda yashamasin, o'z taqdiri haqida o'ylaydi. Turmush sharoitiga qarab goh ongli, goh ongsiz ravishda o'zini bu iqtisodiy, ruhiy qullikdan qutqarish uchun uzluksiz kurash olib boradi, bu holdan qutulishning yo'llarini axtaradi. Davrning ilg'or kishilari—yozuvchi, shoirlar mehnatkashlar ommasidagi bu tushunchalarni o'z asarlarida ifoda etadilar. Bu oqim juda uzoq zamonlar mehnatkash ommaning tushunchasini chalg'itib, uning o'sishiga to'sqinlik qildi. Ikkinchi tomondan, o'z ijodlarida mehnatkashlarning shu dunyoda yaxshi yashash to'g'risidagi orzusini va buning yo'llarini axtarishini ifoda qilgan progressiv adabiyot maydonga keladi. O'zbek adabiyoti tarixi asosan mana shu ikki oqimning uzluksiz kurashidan iboratdir.

O'zbek xalqi adabiyoti tarixida ilk davrda maydonga chiqqan ilg'or yozuvchi, shoirlar o'z ijodlarining birinchi davrlarida insonning tabiiy tuyg'usi-sevgi-muhabbatni ulug'ladilar. O'sha davr uchun bu nihoyatda progressiv hodisa edi. Chunki, reaksiya adabiyot uqtirishicha, inson tuyg'usini kuylash din, shariatga xilof. Inson faqat bir narsaga-qudrati—ilohiyga erishmoqni maqsad qilib qo'ymog'i kerak. Inson faqat xudoni sevishi mumkin, boshqacha muhabbat bo'lishi mumkin emas.

Ikkinchi tomondan, sevgi-muhabbat shaxsni, feodalizm tuzumida mol-mulk darajasida sanalgan xotin-qizlarni ulug'lashni ifodalaydiki, bu ham feodal jamiyatidagi ayollarga past nazar bilan qarovchi din va xurofatga qarshi chuqur norozilik ifodasi edi.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek adabiyotida ko'pdan beri davom qilib kelgan ana shu progressiv oqimning yirik namoyandalaridan biridir. Ogahiy ijodida o'zbek adabiyotidagi gumanizm g'oyalari, odam bolasining o'z baxt—saodati uchun kurash g'oyalari ilgari surildi. Ogahiy poyeziyasida u yashagan davrga xos ijtimoiy hodisalar—jamiyatdagi turli sinf, guruhlarining o'rni, xarakterlari, feodalizm sharoitida yashagan keng mehnatkash ommaning ayanchli ahvoli, mehnatkashlar,

davr ilg'or kishilarining jamiyatni yaxshilash yo'lidagi tushuncha, orzu, harakatlari o'z aksini topdi.

O'zining barakali ijodi bilan Ogahiy zamonasiga qaraganda hayratda qolarli darajada baland saviyali, hayotga chuqur, real qarovchi shaxs bo'lib, shoir sifatida esa nafosatni sezishda nihoyat didi baland, inson ichki dunyosini tubdan tushunadigan va ularni ifodalashda o'ta ketgan mohir san'atkor, so'z ustasi bo'lib gavdalanadi.

Shubhasiz, Ogahiy ulug' istedod va qobiliyat egasi bo'lgan. Gap faqat bundagina emas. Har bir istedod va qobiliyat ma'lum tarbiya va tarixiy ijtimoiy sharoit mevasidir. Shu sababdan Ogahiy bu tariqada yetishtirgan tarbiya, adabiy, madaniy muhit va tarixiy sharoit to'g'risida qisqagina ma'lumot berib o'taman.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li (Ogahiy – uning taxallusi) 1809 yili Xiva shahrining yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keldi. Uning otabobolari ko'p zamondan buyon Xorazm xonligida miroblik vazifasini bajarib kelganlar. Ogahiy dunyoga kelganda amakisi–mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munis mirob edi. Bo'lajak shoirning tarbiyasiga oilasi, ayniqsa Munis Xorazmiyning ukasi Erniyozbek ham savodli, ancha yuqori madaniy saviyaga ega kishi bo'ladi, ammo Ogahiy 3 yoshga yetganda Erniyozbek vafot qilib, bo'lajak shoir shunday yosh vaqtdan boshlab otasiz qoladi. Shu tufayli Ogahiyning tarbiyasi va bu oila xususida g'amxo'rlik Munis gardaniga tushadi.

Ogahiy yoshlikdan yaxshi tarbiya oladi, maktab, keyin madrasalarda o'qib, o'sha zamonda o'rganish mumkin bo'lgan ilmlar bilan tanishadi.

Maktab, madrasa, ayniqsa o'sha davrda o'qitishda hukm surgan sxolastik ta'limot ilmga chinakam havas qo'ygan kishini qanoatlantirishi mumkin emas edi. Ogahiyning ijodi uning zamonasiga ko'ra ancha asosli ma'lumotli va dunyo haqida chuqur mulohazaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bunga u ilm-fanga havas qo'yib, o'zi mutolaa etishi va hayotni o'rganishga harakat qilishi natijasidagina erisha olgan. O'z bilimini orttirish ustida u ko'p harakat qilgan. O'zining bu harakatini devoniga yozgan so'z boshida:

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne tunlar manga xobu rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi¹,

mazmunidagi to'rtlik bilan bayon qiladi.

Yana Ogahiyning o'zi aytishiga ko'ra, zamonasining ilg'or kishisi bo'lgan Munis Xorazmiy shu davrdagi mashhur shoir, olim, mashshoqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan. Ular tez-tez Munis hovlisida to'planib, adabiyot, san'at va boshqa ilmiy mavzularda suhbatlar o'tkazganlar. Bo'lajak shoir hali yosh ekan, bunday suhbat va kechalarda doim qatnashgan, bu hodisa uning ilm-fanga havasmand bo'lishi, yoshligidan adabiyotni sevishiga chuqur ta'sir etgan.

Ogahiy o'zidan ilgari o'tgan o'zbek adabiyoti vakillari ijodini ayniqsa Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan; fors-tojik tilini mukammal bilganligi sababli, bu xalqlar adabiyotining go'zal namunalari bilan originallari orqali yaxshi tanish bo'lgan. Bu hol ham uning o'sishiga va ijodiga chuqur ta'sir etgan. Bulardan tashqari Xorazmda juda qadimdan davom qilib kelayotgan madaniy-adabiy an'analar ham shoir ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan. Chunki O'rta Osiyo xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqi tarixida Xorazm juda qadimdan muhim o'rin egallagan el. Qadimgi Xorazm insoniyat madaniyati tarixida o'zlarining jahonshumul ensiklopedik ilmlari bilan ma'lum davrda butun dunyo ilmi, madaniyati rivojiga zo'r hissa qo'shgan mashhur olimlar Muso Xorazmiy, Beruniy, Umar Jag'miniy, Zamahshariylarning vatani. Buxoroda yetishgan ulug' olim Abu Ali ibn Sino Xorazm olimlari bilan ilmiy hamkorlikda bo'lgan. Abu Ali ibn Sino ma'lum vaqt Xorazm davlatining markazi-eski (ko'hna) Urganch shahriga kelib yashagan.

Lekin bular qadimgi hodisa, bu olimlar yashagan davrdan so'ng Xorazm boshidan ko'p kulfatlar kechgan, qo'shni davlatlar tomonidan necha bor zabt

¹ Ogahiy devoni "Ta'vizul oshiqin", 1905 yilgi Xiva tosh bosma nashri, 2-bet. Bundan so'ng shu manbani "Ogahiy devoni" deb ko'rsatamiz.

etilgan, talangan. Ayniqsa, hokim sinflar o'rtasidagi taxt-toj, mol-dunyo uchun uzluksiz bo'lib turgan o'zaro urushlar jamiyat hayoti va iqtisodini juda yomon ahvolga soladi. Natijada madaniy-adabiy ishlarga kuchli zarba yetadi. Elda madaniy-adabiy hayot juda uzoq vaqt sustlashadi. Faqat XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Abulg'ozixon (1603-1633) va uning o'g'li Anushaxon (1663-1668) zamonida xonlikda siyosiy hokimiyat birmuncha mustahkamlanib, madaniy ishlar birmuncha jonlansa-da, Anushadan so'ng o'zaro ichki nizolar yana kuchayadi. Madaniy ishlarga yana zarba yetadi. Nihoyat, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida mahalliy qabila – qo'ng'irotlardan Muhammad Amin Inoq (1763) o'z raqiblarini yengib, taxtga o'tiradi. Ichki urushlarni tugatishga harakat qiladi. Uning nabirasi Eltuzar (1804—1808) mamlakatni birlashtirish ishini davom ettiradi va o'zini xon deb e'lon qiladi. Shu yo'sinda Xorazm taxtida Qo'ng'irot qabilasidan bo'lgan aristokratiya hukmronligi boshlanadi. Elda o'zaro ichki urushlar birmuncha pasayadi. Hokimiyatda o'zini mustahkam sezgan Eltuzar va undan so'ngi xonlar, saroy aristokratiyasi xalqni ekspluatatsiya qilish asosida ancha mol-dunyo to'plab, o'z hashamatlari uchun masjid, madrasalar va boshqa imoratlar soldirmoqqa boshlaydilar. Saroy atrofiga shoir, go'yanda, mashshoq va boshqa san'at ahllarini to'playdilar. Madaniy–adabiy hayot birmuncha jonlanadi. Shu davrda Xorazmda Navoiy ijodi bilan qiziqish kuchayadi. Navoiyning qator asarlarining nusxalari ko'chiriladi.

Muhammad Amin Inoq va Avazbiy Inoqlar zamonida yashagan Umarboqiy nomli shoir Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarini ancha sodda tilda nasrda ifoda qiladi. Bu har ikkala asar 1909-1910 yillarda Toshkentda tosh bosmada nashr etilgan. Yana shu davrda Kiromiy, Nishotiy, Ravnaq, Roqim, Munis kabi adabiyotning boshqa namoyandalarini ham ko'ramiz. Bu shoirlar o'z ijodlarida Navoiy an'analari himoya qiladilar. Diniy, didaktik adabiyotga qarshi, dunyoviy adabiyotning yuksalishiga xizmat etadilar. Kishining sof, tabiiy tuyg'u, hislarini ulug'laydilar.

Navoiydan keyin doston sifatidagi epik janr adabiyotda juda kam uchraydi. Uzoq zamon kam e'tibor berilgan bu janrni qaytadan ko'tarishga Nishotiy jur'at

qiladi, “Husni va dil” nomida ancha katta ko‘lamda doston yozadi. “Husni va dil”dostonini Nishotiy 1778 yili Buxoroda yozib tugatgan. Bu dostonda mamlakatdagi o‘zaro urushlarga qarshi birlashgan mustahkam davlat tuzish, inson kuchi, g‘ayrati, aqliga chuqur ishonch g‘oyasi ilgari suriladi. Ogahiy o‘z vatanida yetishgan ana shunday sog‘lom adabiyotning bevosita merosxo‘ri bo‘ldi. Bu hodisa ham, shubhasiz, uning dunyo qarashi shakllanishiga va uning shoir, olim bo‘lib yetishuviga katta ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan bittasidir.

Shoirning dunyoqarashi shakllanishi, hayotga, jamiyatga munosabati, umuman, butun ijodida uning tarbiyasi, muhit ta’siridan tashqari, shaxsiy hayoti ham juda muhim omillardan biridir. Lekin, afsuski, Ogahiyning shaxsiy hayoti, boyligi, yersuvi va hokazolar to‘g‘risida aniq ma’lumot beruvchi biror manbaga ega emasmiz. Uning o‘z asarlarida va boshqa manbalarda Munis vafot etgandan keyin 1829 yili mirob qilib tayinlanganligi to‘g‘risida xabar etiladi. Lekin bu vazifada Ogahiy uzoq qolmaydi. Birmuncha vaqt ishlagandan so‘ng, qazuv boshiga chiqqanida otdan yiqilib, oyog‘i mayib bo‘ladi. Shu vajdan, o‘zi xabar berishicha, ariza berib miroblik mansabidan bo‘shaydi. Shundan so‘ng qolgan butun umrini Ogahiy ijodiy ishga bag‘ishlaydi.

Ogahiy o‘zining qator g‘azallarida qiyin hayotiy ahvoli, chekkan azoblari, hatto moddiy muhtojliklari to‘g‘risida gapirib o‘tadi. Ogahiyning o‘z devoniga yozgan debochasida quyidagi satrlari alohida diqqatga sazovor:

Kichiklikdan tushub boshimg‘a kulfat,
Zamoni bo‘lmadim beranju mehnat.
Qolib yolg‘uz tuman anduh ichida,
Mehandin lashkari anbu ichida.
Ishim bekaslik ichra bo‘ldi mushkul,
Murodim bo‘lmadi hech ishda hosil.
Na ishim bo‘lsa muhlik g‘amg‘a bois,
Falak qildi mening sha’nimda hodis¹.

¹ “Ogahiy devoni”, 3-bet.

Bu she'r ancha uzun, uning hammasini keltirib o'tirmaymiz. Lekin she'r mazmuni oxirigacha shu yo'sinda davom etadi. She'r Ogahiyning yoshi anchaga borib qolgan vaqtlarda yozilgan bo'lib, shoir bu yerda o'zining butun hayotiga go'yo yakun yasaydi. Yoshi shunchaga borib qarasa ko'radiki, umri faqat azobu uqubat, dardu alam bilan o'tgan. Unga bu zulmlarni yog'dirgan kuch-falak, ya'ni dunyo jamiyat. Bu yerdagi fikrlarga bir poetik amaliyot yoki vaqtli bir kayfiyat ifodasi deb qarab bo'lmaydi. Bu yerda shoir haqsizlikda, shu qadar g'urbat bilan o'tgan umriga chuqur nadomat va afsus bilan yakun yasaydi.

Toj-taxt uchun urushlar natijasida xarobalik va ochlik shu qadar dahshatli tus olgan vaqtlar bo'lganki, butun-butun qishloqlar qurigan, aholi qochgan, ochlikdan kishilar bir-birini o'ldirib, go'shtini yegan; yosh bolalarni o'g'irlab yeganlar. Munis, Ogahiy tarixiy asarlarida bu haqda ko'p misollar bor. Ichki urushlarni hokim sinflar faqat o'z manfaatlarini ko'zlab olib borganlar. Lekin buning oqibati kulfati keng mehnatkash omma ustiga tushgan. Shoir Ogahiy yashagan davr uchun eng xarakterli narsa elda hukm surgan och-yalong'ochlik va amaldorlar zulmi ostida ezilgan xalqning dod-faryodi, hasrati edi. Mana shu ahvolni ko'z oldiga keltirmay turib Ogahiy ijodida ifodalangan turmushdan chuqur norozilik tuyg'usini anglash mumkin emas. Ogahiy ijodini tekshirar ekanmiz, uning mazmunida elning, xalqning ana shu ahvolining real, hazin ifodasini ko'ramiz.

Ogahiy ijodida ko'pdan davom etib kelayotgan, ancha muntazam shaklga kirgan lirik janr va uning turli shakllari-g'azal, muxammas, musamman, murabba'larni uchratamiz. Biz bu ishimizni Ogahiy ijodida lirika janriga bag'ishlaymiz. Mumkin qadar kengroq ravishda Ogahiy lirikasining muhim xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

I BOB

OGAHIY LIRIKASIDA OBRAZLAR RANG -BARANGLIGI.

Ogahiy ijodining asosiy qismi g'azal, muxammas, to'rtlik, qit'a, tarji'band shaklida ko'rinadigan lirikadan iborat. Lirika adabiyotning muhim janrlaridan bittasidir. Lirikada ham inson, jamiyat hayoti obrazlar orqali yoritiladi. Unda ham hayot obraz darajasiga ko'tarilgan kishi xarakteri orqali beriladi. Lirikaning adabiyotning epos, drama kabi boshqa janrlaridan farqi shundaki, bunda ham hayot ma'lum sujetga bog'langan hodisa, harakat vositasi bilan berilmasdan, kishining ichki tuyg'u-kechinmalari orqali aks ettiriladi.

Shubhasiz, lirik asar asosida ham shoirning hayotdan olgan taassuroti yotadi. Lekin bu yerda shoirning shaxsi birinchi o'rinda turadi. Shoir lirik asarda hayotdagi biror hodisani o'zining ichki kechinmalari orqali tasvirlaydi, ana shu hodisa unda qanday tuyg'u, ta'sir uyg'otganini ifodalaydi.

Lekin masalaning muhim tomoni shundaki, shoirning kechinmalari sifatida berilgan hodisa o'z ta'siri bilan umumiylik kashf etmog'i, ya'ni tuyg'u-kechinmalar jamiyatdagi ma'lum guruhlarining his-tuyg'u, kechinmalarini birlashtiruvchi umumlashgan kuchga ega bo'lmog'i lozim, faqat shundagina lirik asar badiiy kuchga ega bo'la oladi. V. G. Belinskiy lirik asardagi mana shu holatni ta'kidlab, shunday deb yozgan edi:

“Ulug' shoir o'zi haqida gapirar ekan, umum haqida, butun kishilik haqida gapiradi, chunki uning qiyofasida insoniyat yashagan borliq- xislatlar yotadi, shu sababdan uning g'amginligida har kim o'z g'amginligini ko'radi, uning yuragida har kim o'z yuragini ko'radi, uning shaxsida har kim faqat shoirnigina emas, insonni, insoniyatda o'zining birodari- do'stini ko'radi”.

Chinakam iste'dodli, hayotga chuqur qarovchi shoir ijodida Belinskiy fikrining ifodasini ko'ramiz, ya'ni shoirning ruhiy ahvoli, kechinmasini kuylagan lirik asarda ma'lum davrga xos ijtimoiy guruh vakillari tuyg'u kechinmalarini ko'ramiz. Bunday asarni o'qir ekan, har kim o'z ahvoliga yarasha

undan ma'lum ta'sir oladi, asarda ifodalangan ruhiy holatni xuddi o'z boshidan kechirganday bo'ladi.

Ogahiyning bir g'azalida quyidagilarni o'qiymiz:

Qo'yubmen to taalluq mahbasi ichra qadam yolg'uz,
Chekarmen har nafas g'am shahnasidan ming sitam yolg'uz.
Na bor bir yori g'amxorim, na dildori vafodorim,
Yetishsa dahrin chekkum agar yuz bor g'am yolg'uz¹.

Ogahiy she'riyatida bunday tuyg'ularning vujudga kelishiga sabab ham, dastlab, xususiy mulk, ekspluatatsiya va zulm asosiga qurilgan xonlikdagi feodal munosabat, urf-odatlardir. Shoir yolg'izlik tuyg'usi orqasida o'z zamonidan chuqur norozilikni ifodalaydi. Uning g'azallari umumlashma darajasiga ko'tarilgan. Shu keltirilgan parchalarda ma'lum darajada hazinlik, go'yo umidsizlikka ishora qiluvchi baytlar bor. Shoir uchun bu tuyg'ular xarakterli narsa bo'lib qolmagan, ularni hayotdan, kurashdan chetga tortmagan, ulardagi insonga, xalqqa, vatanga muhabbat, xalq kuchiga ishonish bunday tuyg'ularni tug'diruvchi, kishilar hayotini zaharlovchi zulmga qarshi nafrat, kurashni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Lirika hayotdan olingan ta'sirotning, inson kechinmasining ifodasi sifatida ta'riflanar ekan bu kechinma yoki ta'sirotni tor ma'noda tushinib bo'lmaydi. Hayot murakkab, xilma-xil, kishi ruhiga har xil ta'sir qiladi. Shu sababdan turli falsafiy fikrlar, siyosiy qarashlar, ishq muhabbat tuyg'ulari, gul, bahor manzaralari lirik asarda ifodalanishi mumkin va ifodalanib kelgan.

Lirik asarda voqea, hodisa berilmasdan, shoirning hayotdagi turli hodisalardan olgan ta'siri, shu bilan birga, ko'p vaqt, bir onda olgan ta'sir tuyg'usi, hayajoni berilganligi sababidan, bunday asar, odatda, kichkina ko'lamli bo'ladi. Chunki lirik asarda konkret bir hodisada shu hodisaning ta'siri, kechinmasi beriladi. Agar

¹ "Ogahiy devoni", 86-bet.

lirik asarda juda ko'p ta'sir va tuyg'ular berilmoqchi bo'lsa, undagi konkretlik yo'qoladi, shu bilan hayajon ta'siri zaiflashadi; bir ta'sir ifodasidan yana bir ta'sir ifodasiga ko'chishda shoir didaktikaga, hatto ritorikaga berilib ketadi. Shu yo'sinda lirikaga xos yurakni qitiqlovchi, to'liqlantiruvchi ta'sir pasayadi.

Ijodning boshqa xillarida bo'lgani singari, lirik asarda ham shoirning ijodiy ishi ongli, uning ma'lum kuzatgan maqsadi asosida hayotga munosabati shubhasiz. Lirikada, ayniqsa, subektiv payt kuchli. Shunday qaraganda, lirik asarda go'yo faqat shoir tuyg'usi-ichki dunyosi beriladi. Lekin masala bunday emas. Lirik asarni shoirning shaxsiy hayoti yoki biografiyasi bilan bog'lab qarash bilan masalani hal qilib bo'lmaydi. Shoir o'zi inson sifatida jamiyat ichida yashaydi, uning qarashlari jamiyatdagi qarashlar bilan bog'liq. Shoir o'z asarida hayotni qanchalik to'g'ri aks ettirishi uning dunyoqarashiga, qobiliyatiga bog'liq.

Ogahiy lirikasi uchun xarakterli narsa jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshilikni fosh qilishdir. Bu uning lirikasining butun mohiyatini belgilaydi. Chunki xususiy mulk asosiga qurilgan feodalizm jamiyatida shaxsning huquqsizligi, ezilishi, jabrlanishi shu tuzum, shuning tuzum, shu davr uchun eng xarakterli hodisa edi.

Ogahiy lirikasida deyarli hamma vaqt o'z nomidan gapiradi. Shu sababdan lirik qahramon shoirning o'zi sifatida ko'rinadi. Bundan uning lirikasini uning biografiyasi deb yoki hayotining ayrim paytlari bilan bog'lab bo'lmaydi. Ogahiy xoh o'zi nomidan gapirsin, xoh lirik qahramon yoki lirik personaj sifatida ko'rinsin, bu umumlashgan obraz tarzida beriladi. Uning lirikasi mazmuni ayrim shaxs tuyg'u, his, kechinmalaridan nihoyat darajada chuqur, mazmundor bo'lib, o'sha davr, ijtimoiy sharoit yetishtirgan his tuyg'ular sifatida gavdalanadi.

Ogahiy obrazlarini uning mundarijasiga qarab tahlil etar ekanmiz, birinchi navbatda, ko'z oldimizda o'z zamoniga chuqur tanqidiy qarovchi, zamoni haqida va uni tuzatish yo'llari haqida fikr yurituvchi ilg'or bir siymo obrazi gavdalanadi. Bu obraz orqali Ogahiyning dunyoga, hayot, jamiyatga qarashlari ifodalanadi. Bu obrazda shoir ulug' mutafakkir, davrining ilg'or kishisi bo'lib

gavdalanadi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma'shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg'usi, sevgi haqidagi fikrlari, u davrdagi bu masalaga munosabat egallaydi. Bundan tashqari, Ogahiy lirikasida shoirning dunyo lazzati haqidagi fikrlarini yorituvchi sifatida keluvchi rind obrazi ancha mukammal bo'lib, shoir asarlarida unga ancha o'rin berilgan. Shu bilan birga, shoirning ijtimoiy qarashlarini ochishga yordam beruvchi zohid, nosih kabi salbiy obrazlar uchraydi.

Biz quyida ana shu obrazlarning har qaysisini ayrim-ayrim yoritishga harakat qilamiz. Ogahiy davrining ilg'or kishisi sifatida o'zi yashagan jamiyatni, hayotni juda chuqur tekshirgan, hayotdagi juda ko'p hodisalarni anglashga harakat qilgan. U hayotga, jamiyatga real yondashdi.

Ogahiy davrining ilg'or kishisi sifatida o'zi yashagan jamiyatni, hayotni juda chuqur tekshirgan, hayotdagi juda ko'p hodisalarni anglashga harakat qilgan. U hayotga, jamiyatga real yondashadi. Shuning natijasida uning ijodida har qanday jamiyatning asosini tashkil etuvchi kishilar hayotni, jamiyatdagi turli tabaqalarning ahvoli va ular o'rtasidagi munosabatlar, uning tushunchasiga ko'ra, to'g'ri yoritiladi. U o'z ijodida davrning muhim siyosiy, axloqiy masalalarini ko'tardi. Qisqa qilib aytganda, Ogahiy butun umrini haqiqat uchun kurashga sarf etdi.

Ogahiyning dunyo, jamiyat, hayot haqidagi fikrlari uning shu masalaga bag'ishlangan maxsus g'azal, muxammas, musaddas, tarji'bandlarida va ayrim masnaviylarida ifodalangan. Undan boshqa, Ogahiyning jamiyat, hayot haqidagi juda ko'p qimmatli fikrlari asosan boshqa mavzularda, masalan, muhabbat, tabiat manzaralari va shu kabi yozilgan g'azallarida, muxammaslarida ham qisqsa-qisqa ravishda yoritilib ketiladi. Ular jo'shqin yurak sadosi sifatida ayrim asarlarda goh hasrat ohanggida, goh jamiyatdagi maraz-illatlarga, buzuq axloq qoidalariga, yaramas inson xulqlariga chuqur nafrat tarzida beriladi.

Ogahiyning devoni qadimdan davom etib kelgan traditsiyaga binoan g'azallar radifi yoki qofiyasi tugagan harfga qarab alfavit tartibida tuzilgan. Klassik yozuvchilar an'analari asarga tarix qo'yish, yozilgan vaqtini ko'rsatish odat

bo'lmagan. Ko'pincha, devonlar shoir ancha kamolatga yetgan davrda tuzilib, g'azallar devonlarga xronologiya tartibida kiritilmagan. Shu sababdan shoirning keyinroq, hatto qarigan vaqtlarida yozgan she'rlari ham alfavitga to'g'ri kelsa, devon boshiga kiritila bergan. Bu narsa, solishtirilib ko'rish uchun yetarli boshqa ma'lumot bo'lmaganidan, shoir ijodiy yo'lining tadrijiy o'sishini aniqlashda ancha qiyinchilik tug'diradi. Lekin shunga qaramasdan, mavjud materiallar ogahiy dunyoqarashi har doim bir xilda bo'lmagani, shoir turmush, hayotga chuqurroq qaray boshlagani sari, uning qarashlari haqiqatga yaqinlashib borgani to'grisida ma'lum xulosaga kelish uchun yetarlidir. Ogahiy ijodida, hali aytganimizdek, uning ijtimoiy qarashlarini ko'rsatuvchi satrlar nihoyat ko'p va keng.

Shoir o'z xalqini, vatanini, umuman insonni sevgan, odam bolasining baxt saodatini kuylagan, shuning uchun kurashgan ulug' gumanist edi. Hayotga, jamiyatga yondashishda uning mezoni–kishi baxti, kishi erkinligi, gumanizm bo'ldi. O'zining hayotdan maqsadini bayon qilar ekan, Munis g'azaliga bog'langan bir muxammasida: “Yeturmak elga rohat qudratim yetkunchadir korim”, - deydi. Bu satrlarda shoir hayotda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan, shuning uchun ongli ravishda kurashgan, ilg'or fikrli siymo sifatida gavdalanadi. Uning butun ijodi shu maqsadga xizmat qiladi.

Hayotga shu maqsad nuqtai nazaridan gumanist sifatida yondoshgan shoir hayotda, turmushda o'z ideallarining aksini ko'rdi. Hayot, dunyo inson uchun baxt saodat joyi emas, aksincha, qandaydir dahshat, g'am, kulfat, hasratxonadan iborat:

Dahr qasrikim haqiqatda ko'han vayronadur,
Oni har kim maskan etmak istadi, devonadur.
Saqfida yer sarbasar, ondin yog'ar gardi xatar,
Amniyatdin yo'q asar, vah, ne ajab koshonadur,
Fitna avoji oning sokinlari qasdi uchun,
Tortibon onda jafo tig'in mudom aylonadur.
Onda har sham'iki ravshan bo'lg'usidur kechalar,

Qovrilub o‘z yog‘iga boshdin ayog‘i yonadur.
Komig‘a yetgan kishi, tong yo‘q, jahondin topmasang,
Kim bu olam, Ogahiy, bir ko‘hana hasratxonadur¹.

Yana:

Dahr uyi buyodkim, suv uzradur mahkam emas,
Onda kirgan el xavotirdin amon bir dam emas,
Doyimo vayronalig‘ osori oning arkonidin,
Barcha olam ahlig‘a ma‘lum erur, mubham emas.
Kecha kunduz yog‘ar idbor gardi saqfidin,
Yog‘maqi har dam fuzun oning, zamoni kam emas.
Bu sifatlig‘ uy aro har kimki maskan ayladi,
Xotiri oning xavotirdin dami beg‘am emas².

Bu mazmundor satrlarda shoir yashagan sharoit kishi ruhida og‘ir ta’sir qoldiradigan, hayot dunyoga nisbatan afsus, nadomat tug‘diradigan tarzda juda ustalik bilan real ifoda qilingan. Shoir umuman dunyo haqida fikr yurgizadi. Bu qarashlarda kishi aqliy kuchi, ilmi, umuman taraqqiyot darajasi past; unda odamning dunyoni anglay olmasligi, umuman dunyo, falak qonunlarini bilib bo‘lmasligi haqida so‘z boradi. Shoirning qarashlarida tarixiylik ham yo‘q. She’rda boshi ham, oxiri ham, davri ham tayin bo‘lmagan dunyo haqida so‘zlanadi. Bu yerda shoir umuman dunyo, jamiyat haqida gapirar ekan, hali hayotni real, to‘la ifodalashdan ancha uzoq: “ Ushbu mehnat xonada gar shoh bo‘lsun gar gado, bir nafas ayshu farog‘at jomidin hurram emas”, - deydi u. Lekin shoir (yoki bu tuyg‘ularni mujassamlashtirgan lirik qahramon) dunyoning ana shu xilda tuzilishidan norozi. Bu tuyg‘ular jabr-sitam tortgan xalqning: “Osmon uzoq, yer qattiq” tarzida dunyodan noroziligini ifodalovchi maqoli bilan hamohang.

¹ “Ogahiy devoni”, 58-bet.

² O‘sha devon, 315-bet.

Ogahiy hayotni chuqur tekshirar ekan, uning dunyo, hayot haqidagi mujmal fikrlari konkret tus ola boradi. U dunyodan nima uchun bunday norozi bo'lganini izohlab, yana bir g'azalida yozadi:

Harob o'lsun ilohi gunbazi davvor charxi dun,
Ki doim davri kajdur, tavri shumu, hay'ati vojun.
Oning kajravligi ta'siridindur bu jahon ichra
Jafo ahli hamisha xurramu ahli vafo mahzun.
Birovkim topsa yodek tiynati kajlik bila taxmir,
Bo'lur komi o'qi doyim murod omojig'a maqrun.
Birovkim bo'lsa sidqu rostlig' ichra alif yanglig',
Qadi bori mehan ostida bo'lg'ay ul sifatkim nun¹.

Agar shoir yuqorida keltirilgan parchada dunyoning umuman kishi uchun jabr-zulmdan iborat ekanligi haqida gapirgan bo'lsa, keyingi misolda bu fikrlarini konkretlashtiradi; fikrlar tarixiylik kashf etadi. Dunyo kajrav tuzilgan, jafo ahli, ya'ni jabr-zulm qiluvchilar shod-xursandlikda, vafo ahli esa hazinlikda yashaydi. Dunyoda kimda-kim alifdek to'g'ri, ya'ni haqgo'y odam bo'lsa, bu dunyoda og'ir mehnat ostida eziladi, deydi shoir. Ogahiy bu fikrlari bilan haqiqatga yaqinlashadi. Demak, hayotda, jamiyatda hammabir xilda yashamaydi, dunyoda qandaydir kuch hukm suradiki, u sababli dunyo tuzilishida, jamiyatda adolat yo'q. Shoir mana shunday ahvolga qarshi chuqur norozilik tuyg'ularini ifodalaydi.

Ammo bu satrlarda ham shoir qarashida hali to'la aniqlik yo'q. Bu yerda ham "ahli vafo" va "ahli fano" so'zlari juda umumiy. Ammo uning dunyo haqidagi bu fikrlari nihoyat haqqoniy bo'lib, o'zi yashagan jamiyatdagi haqsizlikka qarshi chuqur isyonkor obraz gavdalanadi.

¹ "Ogahiy devoni", 173-bet.

Ogahiy ijodining, uning lirikasining muhim tomoni shundaki, u jamiyat, hayotga bunday mavjud tanqidiy munosabat doirasida qolmadi. U bunday ahvolning sabablarini axtardi. Hayotni tekshirar ekan, birovlar rohatda yashab, yana birovlar doim mehnat azob-uqubatda kun kechirishi ularning moddiy ahvoli bilan bog'liq ekanini sezadi:

Agar uryon shohu gado jismi barobardur,
Tafovut bu ikovg'a aylagan izhor xil'atdur.
Jahon ahli aro nodon ulusg'a aybpo'sh o'lg'on,
Tikilgan rishtai siym ila zarrintor xil'atdur¹.

Bu satrlar shoirning hayotga qanchalik chuqur yondashganligi ravshan ko'rinib turibdi—kishilar o'rtasida tafovut tug'dirgan narsa mol—dunyo ekanligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, mol-dunyo jamiyatdagi har qanday yaramasliklar, ayblarni bekitib ham turadi. Nodon, johil kishilar “zarrintor” qimmatbaho kiyimlar kiyib, o'z nodonliklarini bekitib yuradi. Keyingi satrlarda shoir shaxs haqida gapirmasdan, “nodon ulus” iborasini qo'llaydi, shu bilan boylik orqasida yashirilib yurgan ayrim shaxslarnigina emas, butun jamiyatni ko'zda tutadi. Shu yo'sinda uning bu fikrlari boylik hukm surgan, xususiy mulk asosiga qurilgan jamiyatni to'la ravishda qoralash ma'nosini kasb etadi. Bunday xulosaga kelishga to'la asos bor, chunki o'zi yashagan jamiyat to'g'risida shunday fikrga kelgan shoir bu haqda juda ko'p asarlarida takror-takror gapiradi. Bu masalaga har gal murojaat qilar ekan, mol-dunyo hukm surgan jamiyatda shu bilan bog'liq bo'lgan maraz-illatlarni aniq, ochiq-oydin fosh qiladi.

Bu yerda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, kishilik jamiyatida boylik bilan qashshoqlik o'rtasidagi, tanho boshqaruv bilan mehnat o'rtasidagi qarama-qarshilik faqat Ogahiy tomonidan ta'kidlangan hodisa emas. Bu butun kishilik jamiyati tarixining asosiy mavzusi. Bu haqda Ogahiyga qadar ham ko'p ijodkorlar gapirgan. Tarixda xalq ommasi manfaatlarini ko'zlagan kishilargina bu

¹ “Ogahiy devoni”, 67-bet.

masalani ko'tarib chiqqan. Ogahiy shularning ishini davom ettirgan. Bu holni ortiqcha takror yoki taqlid deb baholab bo'lmaydi. Jamiyatda xususiy mulk hukmronligi davom etar ekan, har doim ham boylik-qashshoqlik masalasi asosiy masala bo'lib qola beradi.

Ogahiyning bu masalaga murojaat qilishi uning o'sha davr uchun ham muhim, eng dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Shu sababdan Ogahiy bu haqda juda ko'p to'xtaydi. Ogahiy ijodida mol-dunyo hukmronligi masalasi ijtimoiy tengsizlikning bosh omili sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, Ogahiy hayotdagi bu holni shunchaki kuzatib turuvchi, uni faqat bayon qilib beruvchi bo'lib qolmaydi; u kishilar huquqini bunday poymol qilib turgan jamiyatdagi shu ahvoldan chuqur norozi bo'lib gapiradi. Ko'p zamondan progressiv ijodchilarning diqqatini jalb etgan bu mavzuni ifodalashda Ogahiy nihoyatda original. Garchi asarda so'z jamiyatda mol-dunyo hukmronligi va shuning natijasida elda hukm surgan haqsizlik ustida borsa-da, bu hodisani ifodalashda Ogahiy eski ijodchilar ifoda va shakllarini takrorlamaydi. Uning shu muhim mavzuga bag'ishlangan g'azallari Ogahiy ijodining o'zigagina xos yo'sinda yozilgan. Uning asarlari bevosita o'sha davr uchun xos bo'lgan fikrlar, harakatlar va davrning boshqa muhim masalalarini ko'taradi. Ogahiy ijodining qimmatini va ahamiyati ham uning ana shu originalligida. Shuning uchun ham u uzoq zamonlardan buyon xalqning sevimli shoiri bo'lib kelmoqda va bugun o'zbek adabiyoti, madaniyati tarixida sharaflari o'rinni egallamoqda.

Ogahiy ijodidan bu muhim masalaga oid yana birmuncha misollar keltiramiz. Ogahiy o'zining qator g'azallarida mol-dunyo hukmron bo'lgan jamiyatdagi shu bilan bog'liq bo'lgan turli xarakterlarni va uning ta'sirining turli detallarini har taraflama ochib beradi. Uning bir g'azalida quyidagilarni o'qiymiz:

Odam uldur bu jahon ahli aro,
Qaysi hayvonning esa siymu zari.
Kirmagay zarsiz kishilik soniga .

Sa'diy o'lsun fazl aro yo Anvariyl¹.

Bu misralarda shoir boylik hukm surgan jamiyatda odam o'rnini "siymu zari", oltin-kumushi bo'lgan "hayvonlar" egallagani haqida gapiradi. Bu yerda shoirning asosiy gumanistik konsepsiyasi ilgari suriladi. U Sa'diy, Anvariyl kabi fozil kishilar faqat boyligi bo'lmagani uchun inson qatorida hisoblanmasligiga qarshi chuqur norozilik bildirdi.

Yana bir joyda Ogahiy:

Ohkim, ahli zamon oldida odam ul durur,

Kim esa hayvon kabi nodonu xo'rdu xoblig'².

deydi. Biz bu yerda mol–dunyo egalariga nisbatan shoir yuragida bo'lgan nafratini ta'kidlamoqchimiz. Ularni ta'riflar ekan, shoirning g'azabi, nafrati kuchli, tili o'tkir, hokim tabaqani u doim "hayvon", "bahoyim" kabi so'zlar bilan ifodalaydi. Bu haqiqat, shoir o'z davrida boylar qiyofasida nodonlik, johillik, berahmlik, zolimlikni ko'rgan. Ana shunday kishilar el xo'jasi bo'lganidan, shoir bu jamiyatni ulug' nafrat bilan bayon qilgan. Shoirning bu fikrlari bilan "og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin", degan xalq maqoli mazmunan juda hamohang.

Jamiyatda mol-dunyo, pulning qanchalik kuchga ega bo'lganini ko'rsatish jihatidan uning "Tanga" chistoni alohida ahamiyatga ega. Uncha katta bo'lmagan bu she'rni biz to'la keltiramiz:

Ul na dilbarkim, tani siymin o'lub,

Badr yanglig' suratu siymosidur.

Xat butub ikki yuzida sarbasar,

Ziynat mafzoyi ruxi zebosidur .

Jussasi tirnog' yuzi yanglig' kichik,

¹ "Ogahiy devoni", 201-bet.

² O'sha devon, 110-111-betlar.

Lek ulugʻlar ishqining rasvosidur.
Vaslini istab jahon bozorida,
Olam ahli boshida savdosidur.
Ham faqiru, ham gʻani devonasi,
Ham qariyu, ham yigit shaydosidur.
Topsa har adno visolin nogahon,
Eʻtibor ichra ulus aʻlosidur.
Etsa har aʻlogʻa gar hajri oning,
Jumla adno xalqining adnosidur.
Topmasa gar iltifotin har kishi,
Xordur, garchi jahon donosidur¹.

Ogahiyning oʻz ijodida mol-dunyo hukmronligi mavzusi buqadar katta ahamiyat berishi tasodifiy bir narsa emas. Ogahiy yashagan davrda Xorazm xonligi, atrofdagi sanoati bir muncha taraqqiy qilgan davlatlardan ancha uzoqda, ajralgan holda yashasada, Rossiya, Eron, Afgʻoniston, hatto Hindiston, Xitoy bilan jonli savdo aloqasi boʻlgan, mahalliy savdogarlar bu davlatlarga savdo bilan borgan, u yerlardan ham Xorazmga savdogarlar kelib- ketib turgan.

Bu chiston oʻzining sodda va kinoyali tarzda tuzilishiga qaramasdan, zamonani, jamiyatda pulning kuchini nihoyat real tasavvur qilishga imkon beradi. Uni oʻqir ekanmiz, kishining eng nozik tuygʻulari oʻrmini tangaga sajda qilish egallaganini koʻramiz; ishq, muhabbatga doir soʻzlarni shoir kinoya tarzida ishlatganligi yaqqol sezilib turadi.

Ogahiyga qadar ham turli shoirlar, masalan, Navoiy ham tanga haqida chiston yozganlar. Taqqoslash uchun Navoiyning chistonini toʻla keltiramiz:

Ne shoʻx erurki, ulus koʻngli ichra savdosi,
Aning yuzidagi xatlar kibi muharrardur.

¹ “Ogahiy devoni”, 345-bet.

Kumushdurur taniyu qiymati aning, lekin
O'n ikki o'z tanidek vajh ila muqarrardur.
Ishida ul o'n ikki har birisidur dinor,
Ki adl sukkasidin yuzlarida zevardur.
Magarki angladi xumsul muborak asrorin,
Ki soni bu adad o'lmish, agarchi yuz mardur.
Gadog'a xumsidin ar saltanatdurur, ne ajab ,
Qachonki beklik aning rub'idan muyassardur¹.

Navoiyning bu chistoni ham tangananing jamiyatdagi fetish darajasidagi kuchini bayon qiladi. Ammo ravshanki, Ogahiy chistoni, garchi Navoiydan oziqlanib yozilgan bo'lsa-da, o'ziga tamom mustaqil, uning shakli, mazmuni juda ham original, bu-she'ning o'zdavri mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Ogahiy o'ziga xos mahorat, chuqur kinoya bilan tanga-pul hukmron bo'lgan jamiyatni fosh qiladi. Chiston ulug' istedod, ayni zamonda chuqur ilhom mahsulidir.

Birmuncha vaqt saroyda ishlagan davrida Ogahiy saroy hayoti, amaldorlar, xon va uning atrofini o'ragan sharoit bilan yaqindan tanishadi. Boylik hamda siyosiy hokimyatni o'z qo'lida to'plagan aristokratiya va saroy amaldorlari nodon-johil kishilar bo'lib, ular hech qachon xalq hayoti, el-yurt farovonligi haqida o'ylamagan. Ular o'z mansablaridan xalqni ezish bilan boylik orttirish uchun foydalanganlar. Gumanist shoir xalq manfaatlari tarafida turib, saroy ahvoli va amaldorlarning qilmishlarini g'azab bilan fosh qilib yozadi:

Johilu xudbin ko'ra olmas o'zidan o'zgani,
Loyiqi davlat emasdur har nazar ko'tohalr.
Sarf etib el molin o'z nafsi uchun qilg'ay mudom,
Ziynati toqu, turnubu,suffau bingohla¹.

¹ A. Navoiy, Hazoyinul maoniy, 3-tom, O'zFA nashriyoti, 1960, 713-bet.

¹ "Ogahiy devoni", 76-bet.

Ogahiy saroy ahli, mansabdorlarni xush ko'rmaganidek, aristokratiya va amaldorlar ham bus of vijdonlik insonni yoqtirmaganlar. Saroydagi iflos kishilar shoirga qarshi turli ig'volar uyushtirib, uning hayotini zaharlaganlar. Ogahiy o'zining saroydagi hayotini tasvirlar ekan, ahvolini quyidagicha bayon etadi:

Ohkim ahli hasadning shevasidur subhu shom,
Men hazinu begunohga necha bo'hton aylamak.

Ogahiy kabi xalq manfaatini ko'zlagan kishini saroydan haydashga harakat etish, uni beobro' qilish yo'lida turli-tuman ig'vo-bo'htonlar uyushtirish saroy ahli uchun oddiy bir narsa edi. Ogahiydek bir kishi ular bilan kelisha olmasligi ham tabiiy hol. Shu sababdan Ogahiy saroy muhitida juda qiynaladi. Saroyda u yolg'iz edi. Aristokratiya vakili, davlatda birinchi feodal bo'lgan xon ham, albatta, shoirni yoqlamaydi. Tuhmat, bo'hton azobida qolgan shoir:

Vah, ne dardu bedavodurkim, barin chin anglabon,
Ey sitam birla g'azab haqqimda sulton aylamak,

deb hasrat qiladi. Shu satrlardan ko'rinadiki, sulton haqiqatni bilishga harakat qilish uyoqda tursin, aksincha, bo'hton qurboni bo'lgan shoirga g'azab qiladi. Shu g'azalning o'zida shoir saroy va aristokratiya bilan o'zi o'rtasidagi kelishmovchilik sabablarini izohlab:

Ushbu dardimning iloji, Ogahiy, yo'qtur, magar
Shah menga el g'amig'a afv ehson aylamak¹.

deydi. Masala ravshan . Shoir el g'amida xalqqa afv-ehson qilmoqchi, ammo bu saroy va xonga ma'qul kelmaydi. Shoirning bu qarashlarida o'z davrining ta'siri yaqqol sezilarli. Qanday bo'lmasin, shoir saroy, podshohni ma'lum darajada

¹ Ogahiy, Tanlangan asarlar, O'zadabiynashr, 1958, 100-bet.

tanqid qilsa-da, o'sha tuzum, ayniqsa, xonga ma'lum ishonch bilan qaraydi. Buni u boshqa bir o'rinda shunday tushuntiradi:

Hokimi shar esang et adl ila hukm, ammo mayl
Qilma bir yong'a agar ersa otang, yo'qsa bolang¹.

Bu satrlarni o'qir ekanmiz, biz shoirning tragediasini birmuncha tasavvur qila olamiz. Shoir, bir tomondan xalqqa bo'layotgan jabr-zulmni ko'radi. Shunday sharoitda xalq manfaatlarini himoya qilmoqchi bo'ladi. Ikkinchi tomondan, qancha asrlardan buyon jamiyat shohlar tomonidan idora etiladi. Shoir bundan boshqa tuzum, idora usuli borligini ko'rgan, eshitgan emas. Shu sababdan el-yurt ahvolini tuzatish uchun xonlarni adolatga chaqiradi. Ammo bu zoya ketgan mehnat edi. Ogahiy ijodining tarixiy chegaralanganligi ana shunda. Ammo Ogahiy kuchli realist edi. Shu sababdan u hayotda o'zi ko'rgan hodisani real ifodalashdan, haqiqatni axtarishdan to'xtamadi. Bu axtarishlar uni borgan sari haqiqatga yaqinroq olib keladi. Yuqorida keltirilgan parchalarda shoir "hokimi shar", hukmdorlarga ma'lum ishonch ila qarab, o'git, nasihat bilan ularni adolatga chaqirsa, boshqa bir joyda qat'iy ravishda:

Komronlar lutfidin ko'z tutma komingkim, olar
Elni nokom aylamak birla etarlar komig'a².

deydi.

Komronlar, ya'ni hukdorlar lutfiga umid bog'lama, chunki ular elni nokom aylash orqasidagina o'z maqsadlariga yetmoqdalar, deb shoir yuqoridagi umidlarni tamoman bekorga chiqaradi. Keyingi fikrlari bilan Ogahiy haqiqatga ancha yaqin keladi. Ogahiy bu yerda hokim tabaqa, amaldorlarning sinfiy mohiyatini chuqur va real ochadi.

¹ "Ogahiy devoni", 121-bet.

² O'sha devon, 179-bet.

Ogahiy ijodini diqqat bilan tekshirar ekanmiz, shoir bilan aristokratiya va axon o'rtasidagi kelishmovchilik borgan sari kesginlashganini ko'ramiz. Yuqorida keltirilgan parchalarda Ogahiy bo'hton-tuhmat ostida qolganida xondan himoya ko'rmagani haqida gapirsa, yana bir joyda:

Rostravlik, Ogahiy, ruhdek sani solmish yiroq,
Qurbi shoh topgay eding kajrav esang farzin kabi¹.

deydi. Shoir bu yerda satranj o'yinidagi figuralarning o'rnini va yurishlarini misolga olib, nihoyat obrazli ravishda, xon va uning yaqinlariga juda to'g'ri yo'ldan yurgani, haqiqat uchun kurashgani uchun shohdan yiroqda o'rin olib, o'zi ham, qo'li ham egri yuradigan kishilar farzin kabi shohga yaqin bo'lganini ko'rsatib, shoh va uning yaqinlarini jasorat bilan fosh etadi:

Ruh kabi shahdin yiroq o'lmas desang bu arsada
Har tarafga moyil o'l, andoqki, farzin, ey ko'ngil².

Ogahiy bu o'rinda yana bir bor shohga yaqin bo'lish uchun farzin kabi egri bo'lish, haqiqatdan yuz o'girish shartligini aytadi. Lekin sof vijdonli odam buni qabul qila olmaydi. Bu–inson katta haqorat. Shoir qalb sadosi bilan, sof vijdonidan:

Joh uchun olamda har nokasga ta'zim aylama,
Istamas ersang agar juhhorlarga bo'lmoq haqir³.

deydi.

Davr ilg'or kishilarining qalb sadosi bo'lgan bu fikrlar kishini martaba, mansab olish uchun haqiqatdan voz kechmaslikka chaqiradi. Bu yerda ham chinakam gumanizm ustun keladi.

¹ "Ogahiy devoni", 185-bet.

² O'sha devon, 134-bet.

³ O'sha devon, 14-bet.

Ogahiy ijodida islomning musulmonlar uchun “ham farz, ham qarz” bo‘lgan asosiy qonun-qoidalariga juda qattiq tegadigan fikrlarga ham duch kelamiz.

Islom dini tariqatining asosiy talablaridan bo‘lgan namoz haqida so‘z borar ekan, Ogahiy:

Masjidda namoz o‘qib mudom, ey zohid.
Gar topmas esang murodi kom, ey zohid.
Ixlos bila kirib xarobot ichra,
Soqiy qo‘lidan ich to‘la jom, ey zohid.

deydi. Bu yerda shoir “ixlos” so‘zidan foydalanib, go‘yo she‘rning to‘la ma’nosini shu so‘z atrofida birlashtirmoqda, zohidning rasmiyat uchun namoz o‘qishini ta’kidlamoqchi. Lekin o‘quvchi shoirning masjid o‘rniga mayxonaga taklif qilishini o‘zicha tushunishiga ham to‘la asos bor.

Yana:

Nega zohido, tarabimni man etasan vara so‘zini debon,
Qani hosilingni degil manga necha umr mayli namoz etib.

Masjid va namoz haqida o‘sha davrda shunday qaltis fikr aytish uchun ancha jasorat kerak edi. Shuningdek, bu haqda bunday mulohaza yurgizish uchun masjid, namoz masalasiga nisbatan shoir yuragida qandaydir betakalluf tuyg‘ular mavjudligi ham ravshan. Islom dinining majburiy talablaridan bo‘lgan ro‘za haqida ham Ogahiyning 3-4 ta maxsus g‘azali bor. Biz ulardan parchalar keltiramiz:

Ro‘za olmishdur ilikdin ixtiyorimni mening,
Qo‘ymamishdir zarracha sabru qarorimni mening.
.....
Hech bir a‘zoda quvvat qo‘ymayin tebrangudek,
Yiqti tufroq uzra jismi ra‘shadorimni mening¹.

Yana:

¹ “Ogahiy devoni”, 124-bet.

Ro‘za aylab mani base diltang,
Boshim og‘ir, ayoqim yeti lang.
Qochurub ko‘zimdin kun-bakun nur,
O‘churub dam-badam yuzimdin rang¹.

Ro‘za ul nav ayladi badhol,
Ki tiriklik manga yeturdi malol.
Necha kun bo‘ldikim xumor ichra ,
So‘zga evrulmayin tilimdur lol².

Yana:

Qil, ey soqiy karamkim, qildi jismim notavon ro‘za,
Xumori jomi maydin ayladi bag‘rimni qon ro‘za.
Ko‘zim nurin, belimning quvvatin qo‘ymay olib, vahkim,
Sitam tig‘in chekibdur emdi aylab qasdi jon ro‘za³.

Biz Ogahiyning ro‘za haqida yozgan to‘rtta she‘ridan parchalar keltirdik. Bularda dastlab ro‘zaning kishi salomatligiga zarari ta’kidlanadi. Shoirning o‘z ahvoliga ro‘zaning ta’siri haqida gapirishini xuddi shu ma’noda tushunish kerak emas, gap hamma ro‘za tutuvchilar haqida bormoqda. Bu yerda shoir, birinchi navbatda, sahar vaqtida yeyish uchun durust ovqati bo‘lmagan, ertadan-kechgacha non yemay, suv ichmay ishlashga majbur bo‘lgan mehnatkash omma salomatligiga ro‘zaning ta’sirini ko‘zda tutadi. Ro‘za tutish 5-10 kun emas, bir oyga cho‘ziladi. Ro‘za tutmagan kishi musulmon emas, din ro‘za tutmagan kishini kelajak dunyo “do‘zaxi” bilan qo‘rqitadi. Musulmon buni bajarishga majbur, ammo hech qanday mehnatkash biro y ishlamay yotib ro‘zg‘orini qimirlata olmaydi. Bir oy ishlamagan dehqonning hosili nobud bo‘ladi. Din topshirig‘ini bajaraman deb, mehnatkash salomatligiga ancha ziyon yetkazadi. Ogahiy shuning

¹ O‘sha devon, 125-bet.

² “Ogahiy devoni”, 143-bet.

³ O‘sha devon, 187-bet.

uchun ham dinning bu talabini kishi uchun jabr deb ta'riflaydi; bu masalaga takror-takror qaytishga majbur bo'ladi.

Ogahiy halol mehnat bilan yashashni bekorga olqishlagan emas. Xalqni talab, aldash, parazitlik bilan hayot kechiruvchilar, ularning mehnatsiz hayotga nafrat bilan qaragan shoirning gumanistik g'oyasi halol mehnatga asoslangan. Ogahiy mehnatga kishining inson sifatida borligini va ozodligini ta'min etuvchi kuchli omil deb qaraydi. Bu uning xususiy mulk asosiga qurilgan jamiyatda kishilar xarakterida paydo bo'ldigan boshqa bir hodisani—tamago'ylikni ifodalashida ancha ravshanlashadi.

Bunday jamiyatda, bir tomondan, butun boylikni o'z qo'liga to'plagan ekspluatatsiya qiluvchi sinflar va , ikkinchi tomondan, eziluvchi mehnatkash ommadan boshqa anchagina katta boshqa bir guruh ham paydo bo'ladi. Bu mayda ruhoniylar, ziyolilar, mullalar to'dasidir. Bular madrasa, masjid qorixonalarda parazitlik bilan kun ko'ruvchi tabaqa bo'lib, ularning ko'plari vaqfdan olgan daromadi, ushur- zakot, sadaqa bilan yashaydi. Tamago'ylik yashash uchun birovlarining dasturxiniga ko'z tikib turuvchi bu tabaqaning asosiy xarakterini tashkil etadi.

Ogahiy aql, kuch egasi bo'lgan inson o'z qadrini bilishini istaydi. Inson qadrini, izzat-nafsini yerga uruvchi har qanday hodisaga u chuqur achinish bilan qaraydi. Tamago'ylik inson qadr-qimmatini yerga uradi, shu sababdan:

Shahdi izzat lazzatin istar esang tark et tama,
Kim bu zahr etgusa ul sharbatni jovidona talx¹.

Yana:

Chun tama' birla agar olding birovdan bir diram,
To qiyomat begumon, bilgil, anga bo'lding asir.
Bir diram har kimga gar in'om qilding, to abad
Ul saning ma'muring o'ldi, sen abga bo'lding amir².

¹ "Ogahiy devoni", 50-bet.

² O'sha devon, 57-bet.

Shoir halol mehnat natijasi bo'lmay, ta'ma in'om bilan qilingan har qanday daromad kishi hayotini zaharlashini, inson ozodligiga raxna yetkazishini ta'kidlaydi. Bu bilan Ogahiy g'aribona bo'lsa-da, beminnat hayot kechirish afzalligini ko'rsatadi. Uning bu fikrlari Navoiy g'azaliga bog'langan muxammasida juda go'zal, yorqin ifodalanadi:

Faqr elig'a kulbasi mulki jahondin yaxshikim,
Anda eskibo'ryo taxti Kayondin yaxshikim,
Tinchlik birla atola no'shi jondin yaxshikim,
Zahrni o'z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Obi hayvon sharbatin nokomlig' jomi bila¹.

Bu satrlarda inson erkinligi nihoyat baland darajaga ko'tariladi, ixtiyoridan tashqari ichilgan tiriklik suvidan, o'z ixtiyori bilan ichilgan zahar afzal ekanligi ta'kidlanadi. Muxammas tuzillishiga binoan keyingi bayt Navoiyniki, ammo bu masalaning mohiyatiga ta'sir etmaydi, bungacha va bundan keyingi misralarda ham beminnat, betama xalq hayoti, inson ozodligi g'oyasi ulug'lanadi. Bunday fikrlarning Navoiy muxammasi orqali Navoiy bilan bog'lanish Ogahiyning bizga yanada olijanob, ulug'vor qilib ko'rsatadi. Chunki u asrlar davomida xalqining ong-tushunchasida yuzaga kelgan. Navoiydek xalqparvar shoir kuylagan g'oyalarni ulug'laydi. Bu ogahiyning yuragi, aqli, tushunchasi va maqsadi Navoiydek ulug'inson bilan birga bo'lganini ko'rsatadi.

Ogahiy ijodi va uning xarakterida bizni bir narsa nihoyatda o'ziga jalb qiladi. U dunyoga tanqidiy qarashda, haqiqatni axtarishda sabotli. Bir umr hayotdan olgan ta'sirini qayd qila bordi. U hayotga qancha chuqur qarasa, shuncha afsuslandi. Juda ko'p hodisalarning sabablarini tushuna olmadi, o'zining, o'zining hayot, jamiyat, inson taqdirini yaxshilash yo'lidagi harakatlari kutgan natijani bermaganini ko'rdi. Shu sababdan juda ko'p ruhiy azob tortdi. Mana

¹ "Ogahiy devoni", 223-bet.

shu ahvol uning lirikasida shaxsiy yurak to'liqlari, yolg'izlik tuyg'ularini ifodalovchi ajoyib g'azallarini maydonga keltirdi. Biz ulardan bir necha misollar keltiramiz:

Bilmon ne dardu g'ang'a erur muftalo ko'ngul,
Kim o't urar fig'onidin aflok aro ko'ngul,
Sarshorkom o'lg'on ulus holini ko'rub,
Bahri taassuf ichra botor doimo ko'ngul.

.....

Har yerda bo'lsa dard ila g'am axtarib topib,
Boshimg'a kelturub ugodur borho ko'ngul.

Bois ko'ngul durur, Ogahiy, holi, xarobima,
Ey kosh xalq qilmag'ay erdi xudo ko'ngul¹.

Yana:

Bukun, ey do'stlar, holim xarob o'lg'ong'a yig'larman,
Ki, ya'ni dardi dog'im behisob o'lg'ong'a yig'larman.
Borib ahbob bir-bir, man qolib bir go'shada yolg'uz,
Ishim mahbus qushdek iztirob o'lg'ong'a yig'larman.
Boqib atrofg'a bir hamdam o'lg'udek kishi topmay,
Tahassur o'tig'a bag'rim kabob o'lg'ong'a yig'larman².

Ogahiyning bu tuyg'u, bu alam-iztiroblari qayda bo'lsa ham faqat dard-alam ko'rgan, ammo buning dardiga chora topolmagan, murod-maqsadiga yeta olmagan insonning el haqidagi qayg'uli yurak sadolaridir. Bu iztirobli el ahvolini tuzatish uchun qayerga qo'l uzatsa, qo'li havoda muallaq qolgan, dardu alamlarini o'rtoqlashishga, uning chorasini ko'rishga madad axtarsa, dardkash topa olmagan jafokashning ohidir. Ogahiyfagi bu shaxsiy yurak sadolarining ildizi nihoyat

¹ "Ogahiy devoni", 133-bet.

² O'sha devon, 158-bet.

chuqur, bu-xalq mafaatini ko'zlagan, inson uchun baxt axtargan, ammo faqat baxtsizlikka duch kelgan, ahvolni tuzatishga ojiz bo'lgan davr ilg'or kishilarning ichki dramasi. Ammo bu umidsizlik sadosi emas, also yo'q. Bu ulug' yurak, sof vijdon egasi bo'lgan talantli shoirning, jamiyatdagi maraz-illatlarni juda ajoyib, ta'sirli ravishda fosh qilish vositasidir. Bu g'azallardagi tuyg'ular o'quvchining yuragiga darhol jiz eti ilashadi va uning yuragidan mahkam joy oladi. Bizning qalbimizdan shunday azob-uqubatlar makoni bo'lgan jamiyatga qarshi nafrat uyg'onadi. Bu tuyg'ular orqali o'sha davrdagi ilg'or kishilar ruhiy azobini ko'z oldimizga keltira olamiz.

Ogahiy uchun ulug' maktab bo'lgan va uning ijodiga kuchli ta'sir etgan forstojik adabiyotining Sa'diy, Hofiz, Umar Hayyom, Abdurahmon Jomiy kabi vakillari ijodida, shuningdek, ma'lum davrda, ma'lum darajada Navoiy ijodida ham sufizm kayfiyatlari bo'lgan. Ogahiyning bevosita ustози, tarbiyachisi Munis ijodida ham bu kayfiyat seziladi. Shu sababdan Ogahiy ijodida sufistik fikrlar manashu kuchli adabiy maktab va traditsiyaning ta'siri, davomi sifatida aks etgan bo'lishi mumkin. Undan boshqa, Ogahiy yashab ijod etgan sharoitning o'zida islom dini hukmron g'oya bo'lib, xalq ommasini tushunchasiga nihoyat singgan edi. Feodallar ekspluatatsiyasi ostida moddiy jihatdan nihoyat darajada siqilgan mehnatkash omma deyarli butunlay savodsiz bo'lib, har qanday konservativ tushuncha, xurofot uni o'z asoratida saqlar edi. Shular natijasida xalq ommasining ko'pchiligi bu dunyo bebaqo, bevafo, kishilar uchun ozodlik, farovonlikni ta'min etadigan dunyo- kelajak dunyo, oxirat degan diniy uydirmalarga asoslangan umid bilan yashar edi. Shu jamiyatda yashagan Ogahiy qarashlariga bu ma'lum ta'sir etmasligi va ma'lum yo'sinda uning ijodida o'z aksini topmasligi mumkin emas edi. Shu bilan birga, Ogahiy ijodidagi sufizm kayfiyatlari uning jamiyatda hukm surgan haqsizliklardan noroziligi va dunyoqarashining idealistikligi tufayli jamiyatdagi ko'p hodisalarning sabablarini anglay olmaganligi natijasida tug'ilgan. Bir muncha misollarga murojaat etamiz:

Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,

Ko‘z yoshi birla ko‘ngul qoni mayi gulfomidur.
Har kishikim onda kirdi ichmak istab jomi aysh,
Necha turluk g‘ussa zahrining qadah oshomidur.

.....

Ogahiy, tutg‘il fano kunjinki, dahr anduhidin,
Forig‘ o‘l ozodakim ul go‘shada oromidur.

Yana:

Dahr uyi bunyodkim suv uzradur- mahkam emas,
Anda kirgan el xavotirdin amon bir dam emas...
Dahr bir gulshandurur, bo‘yi, vafosi yo‘q aning,
Jong‘a haz yetkurgudek obu havosi yo‘q aning¹.

Bu keltirilgan parchalarda shoir dunyo, jamiyatning buzuvchi tuzilganligi haqida fikr yurgizadi. Shoirning bunday fikrlari kishilar taqdiri bilan bog‘langan. U dahrning kishilar uchun baxt emas, kulfatdan iboratligidan norozi. Bu bilan shoir o‘zi yashagan jamiyatni fosh qiladi, shu bilan, shoir istasin-istamasin, islom dini qarashicha, butun borliqni yaratuvchi xudoning dunyoni shu xilda yaratishiga qarshi norozilik bildiradi. Bu shoir qarashidagi ijobiy tomon, ammo shoir bunday ahvoldan qutilish chorasi sifatida:

Dahr bir vayronaidurkim, xarob obod erur,
Chiqsa andin har kishi g‘am bandidin ozod erur².

deb, dunyodan chekinish, narigi dunyoga umid bog‘lash mazmunida fikr bayon qiladiki, bu tarki dunyochilik yo‘sinidagi sufizm kayfiyatining natijasidir. Bu-Ogahiy ijodining salbiy tomoni, uning o‘z davri farzandi ekanligidan kelib chiqqan g‘oyaviy kamchilik.

¹ “Ogahiy devoni”, 315-bet.

² O‘sha devon, o‘sha bet.

Ogahiy nihoyat darajada murakkab davrda, og'ir sharoitda yashab ijod etdi. Bu sharoitda xalq ongida hali sinfiy tushunchadan ko'ra ko'proq odamlarni tabaqalarga (oqsuyak, qora suyak, xo'ja, sayid) bo'lish tushunchasi hukmron edi. Kishilar ongini zaharlovchi din, xurofat kuchli edi. Ana shu jamiyatda yashagan shoir aristokratiya, xon bilan ma'lum ma'noda kelishishga, murosa qilishga iqtisodiy jihatdan ham majbur bo'lgan. Bu sharoitda har qanday erkin fikr va uning tarafdorlari darhol ta'qib ostiga olinar va turli jazolarga duchor bo'lar edi. Ogahiy bu ahvolni yaxshi tushunar edi. O'zining bir g'azalida:

Ey ko'ngul, maqbuli xalq o'lmoq ne imkonkim sanga,
Bo'lmag'uncha toki hashvu lag'v ila murdor til.
So'z ravonlig' birla de olmay fig'onkim, ayladi
Xalqni mandin, mani hamxalqdinbevor til.

deydi.

Shoir elda, jamiyatda faqat bekorchi, be'mani so'z aytishga yo'l qo'yilganini ta'kidlab, "so'z ravonlig'", ya'ni erkin fikr aytish imkoniyatining yo'qligi natijasida o'z fikrlarini xalqqa ayta olmasdan o'zi bilan xalq o'rtasida anglashilmovchilik chiqishidan noroziligini ifodalaydi; shu she'rida shoir agar imkoniyat bo'lsa jamiyat va xalq manfaati to'g'risida yana boshqa fikrlar aytish orzusida bo'lganini bildiradi.

Ulug' qobiliyat egasi Ogahiy hayot va haqiqatni anglash yo'lida ko'p harakat qildi. U hayotga, jamiyat hodisalariga realist sifatida yondashdi va hayotdan olgan taassurotlarini real yoritdi. Hayot haqiqati shoir qarashlaridan chuqur bo'lganidan, shoir ijodining ta'siri uning o'z qarashlaridan yuqori. Shuning natijasida biz Ogahiy ijodidan u yashagan hayot, jamiyat haqida uning subektiv qarashlaridan ancha keng va chuqur tushuncha olamiz.

I I bob

Ogahiy sh'eriya-tida oshiq va ma'shuqa obrazlari talqini

Ogahiy lirikasining asosiy mavzularidan biri ishq-muhabbat mavzusidir. O'z lirikasining hamma janrlarida shoir bu masalaga alohida e'tibor beradi. Bu tabiiy. Chunki muhabbat insonning tabiiy tuyg'ulari zaminida maydonga keladi, shuning uchun u kishilar hayoti va, umuman, jamiyatda katta o'rin tutadi. Barcha xalqlar va jamiyatdagi hamma ijtimoiy qatlamlarga xos muhabbat tuyg'ularini kuylash Sharq adabiyoti, shu jumladan, o'zbek adabiyotida an'ana bo'lib, hamma ilg'or shoirlar bunga alohida e'tibor berganlar. Sevgi-muhabbat tuyg'usi mohiyatida aslida inson hayoti va jamiyat uchun eng muhim masala-oila qurish maqsadi yotadi. Inson nasli, hayoti va jamiyatning sog'lomligi, hayot va jamiyatning dastlabki ko'rinishi bo'lgan oila sog'lomligiga bog'liqdir. Oshiq va ma'shuqa ko'ngliga, didiga yoqqan kishi bilan birga hayot kechirishni shu kishi bilan hayotda o'z maqsadi uchun birga kurashishni orzu qiladi. Ko'ngilga yoqqan kishi bilan yashash, kurashish shirin, yoqimli. Bu oila hayotining sog'lomligini yuzaga keltiradi. Sevgi-muhabbatga bundan boshqacha qarash xato bo'lar edi. Shu sababdan insonning tabiiy tuyg'usiga asoslangan sevgi kishilar hayotida katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan, kelmoqda va shunday bo'ladi. Barcha davrlarda turli xalqlar ijodchilari sevgi haqida shu maqsadni ko'zda tutib yozganlar, yozmoqdalar, yozadilar. Lekin insonni ezishga asoslangan jamiyatdagi hukmron, axloq, din nomi bilan bog'langan turli xurofot va odatlar insonning eng olijanob tuyg'usi-erkin muhabbatning yo'lini to'sgan. Ayniqsa Sharqda, o'zbek xalqi hayotida din-xurofot ta'sirida sevlash, sevilish katta gunoh hisoblangan. Xotinlar paranjiga berkitilgan. Paranjli inson erkinligini bo'g'ishning jirkanch ko'rinishlaridandir. Lekin insonning olijanob tuyg'ulariga hech nima g'ov bo'lolmagan, sevgiga to'sqinlik qiluvchi narsa o'ta ketgan haqsizlik va jabr bo'lganidan, davrning ilg'or kishilari bunga qarshi kurashganlar. Shu sababdan Sharq xalqlari adabiyotida, ana shu jumladan o'zbek xalqi adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusi adiblarning diqqat markazida turgan.

Ogahiy yashagan, ijod etgan davrda ham feodalizm tuzumi va feodalizm g'oyasi hukm surganligi tufayli, insonning olijanob sevgi tuyg'usi quvg'inda bo'lib, sevgini izhor qilish odobdan tashqari hisoblanardi. Sevishganlar haqoratlanar, buzuqqa chiqarilar, turli jazolarga tortilardi. Natijada oila qurish ikki yoshning ixtiyoridan tashqari, odat talabiga ko'ra, ota-ona ixtiyorida bo'lgan. Bir-birisini ko'rmay, sinashmay, kishining tabiiy tuyg'usi-sevgi bilan hisoblashmasdan tuzilgan oilalar hayoti ko'pincha bir umr azob, turli fojialar bilan tugagan.

Bundan tashqari, ezilish-ezilishga asoslangan jamiyatda insonning shunday go'zal, nozik, olijanob tuyg'usiga moddiy manfaat, mol-dunyo aralashgan. Ko'pincha yosh qizlar qalin barobariga ota-ona tomonidan qari kishilarga sotilgan, 15-18 yoshlardagi bir qizning 60-70 yoshlardagi kishi bilan yashashga majbur qilishdan ortiq xo'rlikni tasavvur qilish mumkin emas. Ammo feodalizm tuzumi uchun bu oddiy, hatto tabiiy bir narsa deb qaralgan. Yuzlab, minglab oilalar shu yo'sinda tuzilgan. Qalin to'lab olgan xotiniga er sotib olingan mol sifatida qaragan. Xotin uy cho'risi bo'lgan.

Mol-dunyosi bo'lgan badavlat kishilar 3-4 kishilar xotin olganlar. Xon, hukmdorlarning haramlarida rasmiy nikohidagi besh-olti xotinidan tashqari, behisob kanizaklari bo'lgan. Bu shariat tomonidan oqlangan. Qalin to'lashga qurbi yetmagan ming-ming erkaklar oila qurolmasdan dunyodan o'tgan. Minglab sevishganlar feodalizm tuzumiga xos turli haqsizlik, xurofot, odat sababli bir-biriga yetisha olmay, hasrat bilan o'lib ketgan. Insoniy sevgining bunday xo'rlanishini qoralab, hamma xalqlarning ulug' shoir, adiblari va xalq ijodchilari o'lmas asarlar yaratganlar. Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Tohir va Zuhra, Oshiq G'arib, Romeo va Juletta kabi o'lmas obrazlar taqdirida erkin sevgini bo'g'gan tuzumga u tuzum yaratgan turli odatlarga qarshi xalqning chin nafrati, erksevar ruhi ifodalangan.

Ogahiyning sevgi lirikasi mazmunida ham, lirik janrning o'ziga xos yo'sinida, ana shu obrazlar, klassik asarlarda kuylangan olijanob maqsad ko'zda tutiladi, sevgini bo'g'uvchi jamiyatdagi g'ovlar chuqur nafrat bilan fosh etiladi.

Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qildi: oshiqlar, ko‘pincha, yoriga yeta olmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat motivlarining ustunligi shoirning shaxsiy tuyg‘usi yoki qobiliyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas; aksincha, bu Ogahiyning ulug‘ gumanist, o‘z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrning asosiy xususiyatlarini ko‘ra bilgan realist sifatida gavdalantiradi. Agar Ogahiy sevrishganlarni o‘z maqsadiga erishgan, doimo xushchaqchaq, quvnoq qilib tasvirlaganda, uning lirikasi hayotdan uzoq, qandaydir sun‘iy bo‘lib qolardi.

Ayrim kishilar ba‘zan Sharq xalqlari poeziyasida, shuningdek, o‘zbek klassik lirikasida hasrat, nadomat motivlari ta’sirchanligini noto‘g‘ri tushunib, bu poyeziyani yig‘loqi, “ko‘z yoshi” poyeziyasi deb kamsitmoqchi bo‘ladi. Bu, albatta, masalaning mohiyatiga tushunmaslikdanyuzaga kelgan qarash. Feodalizm sharoitida ijod qilgan shoirlardagi hasrat, nadomat shoir ijodiga davr, jamiyat ta’siri natijasi edi. Ilg‘or shoirlar jamiyatdagi sevgiga bo‘lgan bunday munosabatni qoralagan, bu xususda ham chuqur muhabbatni va hayot go‘zalligini tasvirlab, insoniy olijanob tuyg‘ularni chuqur nafosat, harorat bilan kuylagan. Bu shoirlar intim lirikasidagi hazinlik hayotdagi bunday yaramas holni qoralab, erkin, baxt-saodatli hayot uchun kurash orzusi sifatida yuzaga kelgan. Ogahiy lirikasini konkret tekshirar ekanmiz, yuqorida aytilgan fikrlarimizning to‘la isbotini ko‘ramiz.

Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tuyg‘u-kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashk va hokazolar tusidagi tuyg‘ularini ifodalash yo‘sinida ko‘rinadi.

Shoir yashagan feodal sharoit va axloqqa binoan xotin–qizlar jamiyat hayotida faol qatnashmaganlar, shuning uchun ularning sevgi tuyg‘ulari va ichki dunyosini to‘la ochish nihoyat og‘ir bo‘lgan. Ogahiy ijodida ham ma’shuqa obrazi, ko‘pincha, shoir qarashlari va oshiqning tuyg‘ulari orqali beriladi. Shu sababdan

ma'shuqa obrazini alohida ajratmasdan oshiq obrazi tahlili ichida uning tuyg'ularini ifodalovchi xarakterli paytlarni ko'rsatib ketamiz.

Ogahiy lirikasidagi hamma his-tuyg'ular shoir zamondoshlari his-tuyg'ularining real ifodasidir. Lirik asar xususiyatiga ko'ra, bu his-tuyg'ular shoir ishtirokidan tashqari ifodalanishi mumkin emas. Shuning uchun bular shu masalaga, ularning o'ziga nisbatan shoir qarashlarini ham aks ettiradi. Lekin ularni shoir biografiyasiga oid yoki shoir shaxsan o'z boshidan kechirgan his-tuyg'ular ifodasi deb bo'lmaydi. Bu yerda shoir ishtiroki shartli narsa. Aks holda qaraganimizda ancha o'ng'aysiz hol ro'y berishi mumkin. Bir misol:

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina.
Qilg'il tamosha qomati zebosi birla orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina¹.

Ravshanki, bu yorning husnini tasvir qiluvchi ishqiy lirik g'azal
G'azal:

Qilma havas, ey Ogahiy, emdi yigitlik ayshini,
Kim etti umring muddati ellik yeti yosh ustina,

bayti bilan tugaydi. Shu keyingi baytda shoir sevgi yigitlik vaqtiga xos va o'sha yigitlik davri uchun yarashadigan tuyg'u ekanini ta'kidlaydi. Bu g'azalni yozganda shoir ellik yetti yoshda bo'lgan, shunday ekan, g'azalda ifodalangan tuyg'ularni shoirning kechinmasi sifatida talqin etish, albatta, noto'g'ri bo'lar edi. Shoir g'azallari ichida bunday misollarga ko'p duch kelamiz.

Ogahiy lirikasida tasvirlangan oshiq obrazi dunyodagi barcha lazzatni, hayotni, inson go'zalligi va o'z yorini sevgan, bu sevgiga butun borlig'i bilan berilgan, nozik yurak to'lqinlarini chuqur sezadigan jonli odamdir. Uning o'z yoriga-

1 "Ogahiy devoni", 181-bet.

ma'shuqasiga bo'lgan muhabbati samimiy ham nihoyat chuqur. Oshiqning sevgi tuyg'ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiylik va reallik she'rga uzoq umr baxsh etgan:

Xushtur bahor mavsimining ayshi chog'ida
O'z yori birla bo'lsa kishi vasl bog'ida.
Sayr etsa goh dilbarining ilgini tutub,
Bog'i visol gulshanining so'lu sog'ida.
Gah shavq birla tersa ko'rub kom gullarin,
Ko'rgach murod mevalarini sapog'ida.
Gohi maqom qasri muallo aro qilib,
O'ltursa gohi havzi musaffo qirog'ida¹.

Ogahiyning bu g'azali Navoiyning shu ruhdagi bir g'azaliga nazira yo'sinida yozilgan. Ifodalangan tuyg'ular nihoyat darajada tabiiy, bular hali ham bizning ruhimizga chuqur ta'sir etadi; ulardan hayotbaxsh estetik zavq olamiz. G'azaldagi tuyg'ular shoir yashagan zamonda sevgiga nisbatan hukm surgan har qanday past nazar, taassub va xurofot unsurlaridan xoli, shu sababdan bu tasvir bizning hozirgi ozod shahar, qishloqlarimizning go'zal bog'larida, hovuzlar, ko'llar qirg'og'ida, osmonga otilib turgan fontanlar atrofida yayrab, yashnab yurgan million-million yoshlarimizning shirin hayotini jonli ravishda ko'z oldimizga keltiradi.

Shoir Ogahiy g'azalida tasvirlangan hayot faqat orzu edi. Gumanist shoir inson bolasi shunday hayot kechirishini xayol qilardi. Yuqorida shunday samimiy, yoqimli tusda tasvirlangan hayot orzu, o'z zamonini qoralash, shunday hayot bo'lishiga yo'l qo'ymagan tuzumni fosh qilish ta'sirini kuchaytirish uchun vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu g'azalning yozilganiga 100 yildan ortiq vaqt o'tdi. O'sha zamonda g'azalni o'qigan har qanday jonli odam undagi hayot manzarasini ko'rgandan keyin o'z hayoti, o'z atrofiga nazar solmaydimi? Albatta, nazar soladi.

¹ "Ogahiy devoni", 20-bet.

Uning xayollari ost-ust bo‘ladi. Chunki hukm surgan tuzum, axloq, odat tufayli o‘z yoriga erisha olmay, hatto uni bir ko‘rishga chora topa olmay yurgan yoshlar o‘sha davrda minglab bo‘lgan. Keyingi satrlar bilan Ogahiy bunday hayot yo‘qligini, bu faqat o‘zining orzusi ekanligini ta’kidlaydi: shoir o‘quvchisiga yordamga keladi; uning hayot haqidagi xayollarini chuqurlashtirish, yurak to‘lqinlarini alangalatishga madad beruvchi, xayol, tushunchasini to‘g‘ri yo‘lga soluvchi fikrlar bayon qiladi:

Senkim bu nav’ tarab bazmu bog‘ikim,
O‘lguncha o‘rtan, Ogahiy, g‘am dardu dog‘ida.

Natijada oshiq- shoir orzularini kuylagan g‘azal sevgini, oshiqning orzularini bo‘g‘uvchi jamiyatga qarshi norpazilikni ifodalovchi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Shoir-oshiq uchun muhabbat dunyosida juda ham sof, toza, muqaddas tuyg‘ular dunyosidir:

Tariqi ishq aro har kim qadam qo‘ysa agar gustox,
Ko‘rar albatta ul yo‘l sayrida turluk xatar gustox.

Adabgohi maqomi qurb andoq keldi oliykim,
Ham ul yonga ocha olmas maloyik bolupar gustox.
Tong ermas ko‘rmasa maqsad yuzini zohidi xudbin,
Ki ul yuzga ocha olmas nazar har bebasar gustox.

Agar odam esang sayr et bu gulshanda adab birla,
Qadam har sori qo‘yma ul sifatkim govu xar gustox.
Ko‘ngul oyinai matlabnamodur, bir nafas oni
Mukaddar qilma har suratni aylab jilvagar gustox¹.

¹ “Ogahiy devoni” 49-bet.

Bu satrlarda shoir-oshiqning muhabbatga munosabati juda yorqin ifodalangan. Muhabbat shu qadar ulug' va muqaddas narsaki, bunga intilgan, bu yo'lda o'z maqsadiga erishmoqni istagan kishi unga juda sof yurak, yaxshi niyat va hurmat bilan yondashmog'I kerak. Buzuq qalb, egoist kishi bu yo'lda turli- tuman xavf, xatarlarga duch keladi, undan odam o'z maqsadiga yetisha olmaydi.

Oshiq olamini ta'riflar ekan, shoir bu sevgining qanchalik yuksak va olijanob ekanligini yaqqol ifodalash uchun bu yo'lda hatto maloyik-farishtalar ham beadablik bilan qanot qoqa olmaydilar, deudi. O'sha davr kishilari tushunchasida maloyiklar soflik, poklikning mujassami bo'lgan. Nafs bandasi bo'lgan zohid, ho'kiz, eshakdek qo'pol harakat qilgan kishilarning o'z maqsadlariga yeta olmasligi, bunday olijanob tuyg'u unday kishilarga xos emasligi aniq. Chunki muhabbat inson qalbining nozik ko'zgusi, buni har qanday iflos harakat va niyat bilan dog' qilib bo'lmaydi. Sevgi inson ruhining fazilati. Bu tuyg'uning qadriga hamma ham yeta olmaydi. U sof, olijanob yurak, ezgu tilaklar bilan bog'liq, shu sifatdan hayvon sifat odamlar nafs bandasi bo'lgan zohidlar bu olamga kirolmaydi. Bu qarashlarning qanchalik sog'lom va naqadar chuqur gumanizm bilan sug'orilganligi o'z-o'zidan ravshan.

Ogahiy inson qalbi va uning olijanob tuyg'usi-sevgini nihoyat darajada ulug'laydi. "Gustox" radifli bu g'azalida Ogahiyning sevgiga bo'lgan qarashi, go'yo bir dastur sifatida berilgan. Qolgan g'azal va lirik asarlarda ifodalangan maqsadlar bu harakatning hayotdagi xilma-xil detallari shaklida ko'rinadi. Shoir har o'rinda ham oshiq-ma'shuqalar tuyg'ulariga nisbatan hurmatsizlikni chuqur afsus bilan bayon qiladi. Shoir hayotda, jamiyatda o'zining muhabbatga bo'lgan qarashining namunasini ko'ra olmaydi. Shu sababdan uning sevgini, oshiq yuragi va sevgi olamini ulug'lagan yuqoridagi g'azali ham:

Adib o'lmaq zamona ahlig'a kim, Ogahiy, sanikim,
Ki ermas olam ichra hechkim sandan batar gustox

mazmunida nadomatli tuyg'ular ifodasi bilan tugaydi. Jamiyat, hayotda tengsizlikning asosi bo'lgan mol-dunyo, martaba sevgidek olijanob, nozik tuyg'ular olamiga ham kiradi. Bu sevgiga nisbatan hayotdagi hurmarsizlik, beadablikning ko'rinishlaridan biri—o'z yorini chin yurakdan sevgan oshiq visol orzusida chuqur hayajon bilan deydi:

Bilmon bu oqshom ul mahi xudkom qaydadur,
Begonalar bilan qadah oshom qaydadur.....
Tutmish visol bodasini ahli johga,
Men benavog'a emdi to'la jom qaydadur.
Ahli g'inog'a xosdurur vasli ne'mati,
Bechorau faqirg'a in'om qaydadur.
Vasli muyassar o'lg'usi zar birla, vah oni
Qilmoq man gadog'a saranjom qaydadur¹.

Bu yerda oshiqning maqsadga yetishiga g'arib, faqir ekanligi to'sqinlik qilgani, yori mansabli, puldor kishilarni undan afzal ko'rib, ular bilan kayf—safoda o'ltirgani chuqur afsus bilan ifodalanadi. She'rda oshiq "xudkom" so'zini ishlatish bilan bu hodisaga yorning bevafoqligi sabab ekani, faqat o'z manfaatini o'ylab, oshiqni unutganligi ham ishora etiladi. Ammo qanday bo'lmasin, oshiqning murodiga yetishiga to'sqinlik qilgan narsa uning g'aribligi, sevgi masalasida ham pul, mansab katta rol o'ynaganligi g'azalda ilgari surilgan asosiy g'oyadir. Bu oshiq-shoir tomonidan tasodifiy, yo'l-yo'lakay aytilgan fikr emas. Uni shoir qayta-qayta ta'kidlaydi:

Dedim: komimni shirin ayla la'ling shakkari birla,
Dedim: ochma og'iz bunday kalomi sarsari birla...
Dedim: bo'lmish menga kam naqd lutfing o'zgin ne'vchun,

¹ "Ogahiy devoni", 59-bet.

Dedim: san boy erursan ganji ma'ni gavhari birla.
Dedim: qaysi kishikomig'a yetkay bazmi vaslingdin,
Dedim: ondoq kishikimmoli vofirdur zari birla.
Dedim: nevchun qocharsan Ogahiydin ko'rguzib nafrat,
Dedi: quchmoq tilar belimni jismi log'ari birla¹.

Yana:

Toliu baxt kamlig'i ayladi bizni g'amg'a juft,
Yo'qsa fununu fazl aro arsay dahr toqimiz.
Mahrig'a berg'ali diram topmayin umrimiz o'tub,
Ayshu taraf arusidin xoli erur quchog'imiz².

Ravshanki, shoir bu tasvirda hayotda mavjud faktlardan oziqlangan, bu hodisaga o'zining nafratli qarashlarini bayon qilgan. Sevgiga mol-dunyo aralashishi natijasida bu tuyg'udagi fazilat, hurlik nafosati yo'qolgan. Bu yerda sevgi emas, qandaydir g'araz, moddiy manfaat uchun inson o'z hurligini sotishga majbur bo'ladi. Buning chin sevgi bilan hech qanday aloqasi yo'q. Oshiqning: nega menga jutfing kam, deb bergan savoliga ma'shuqaning: "sen boy erursan ganji ma'ni gavhari birla" deb javob berishi pul, g'araz aralashgan bu tuyg'uda sevgi yo'qligi, bu olijanob tuyg'u xo'rlanganligini ko'rsatadi. Kishining ma'noga boy bo'lishi fazilat bo'lsa, bu javobda ana shu fazilat sevgiga to'siqlik qiluvchi "nuqson" ga aylangan.

Insonning eng yaxshi tuyg'usi- sevgi baxtli bo'lishi uchun u har ikki tomondan bo'lishi kerak. Bunda, dastlab, oshiq va ma'shuqaning yoshi va boshqa fazilatlarida ma'lum tenglik bo'lishi ham muhimdir. Biz yuqorida keltirgan bir g'azalda shoir-oshiq: sevgi yoshlikning bezagi, mevasi ma'nosida fikr bayon qilgan edi. Bu muhim masalaga shoir yana qaytadi:

Man dedim yana afg'on tortibon necha karat:

¹ "Ogahiy devoni", 189-bet.

² O'sha devon, 81-bet.

Ne bo‘lur muqim o‘lsam bazmingda bir soat.
Dedilarki: san fartut, biz juvoni xush surat,
Bas, sanga na loyiqdur bizdin istamak suhbat.
Vahki, ko‘rma dim olam ichra bo‘yla dilbarlar,
O‘ltururga oshiqin rahmsiz sitamgarlar¹.

Yana:

Lek ahli aql oldida muzdin sovuqdurur,
Bir ko‘hanga toza juvon ixtilot².

Oshiq shoirning bu qarashlari insonning tuyg‘ularini hurmatlash va ulug‘lashga asoslangan. Yosh qizlar mol-dunyo uchun sotilgan, ularning tabiiy tuyg‘ulari xo‘rlangan, barbod qilingan bir zamonda shoir shunday ulug‘, sog‘lom fikrlar bilan maydonga chiqadi. Uning asarlarida bunga oid konkret bir hodisa ko‘rsatilmasa-da, shoirning qarashlari o‘sha davrda hukm surgan, jamiyatda normal hisoblangan bu vahshiyona odat va ahvolga nisbatan chuqur norozilik ekaniga hech shubha yo‘q. Sevgida erkinlikni, tenglikni madh qilish, har qanday moddiy, shaxsiy manfaatlar, g‘araz va boshqa yaramas hollarga qarshi chiqish barcha xalqlarda progressive g‘oyada turgan kishilarning qarashlari bo‘lgan. Sevgiga bu xilda qarash bizning sotsial jamiyatimizda axloq talablariga ham to‘la javob beradi. Sevgi erkinligi bizning davlatimiz qonunlari bilan himoya qilinadi.

Ogahiy lirikasida oshiq obrazida, uning bu masaladagi qarashlari turli tomondan oydinlashadi. Bularning hammasi sog‘lom asosda, inson tuyg‘usini hurmat qilish yo‘sinida ko‘rinadi, rivojlanadi. Muhabbat tuyg‘usi insonning olijanob maqsad va orzulari bilan bog‘langanligi uchun, bu masalada vafo va sadoqat nihoyat muhim. Muhabbatning sog‘lomligi oshiq-ma‘shuqlarning vafodorligiga bog‘liq. Vafo-sadoqat asosida sog‘lom oila dunyoga keladi:

Sho‘xlar husnin ko‘rib ishqida zor o‘lmaq abas,

¹ “Ogahiy devoni”, 302-bet.

² O‘sha devon, 102-bet.

Bevafolar vaslin istab beqaror o'lmaq abas
Dahr aro har zolimi bemehr ishq ilgiga,
Ixtiyor ilgin berib, beixtiyor o'lmaq abas.

.....
Yorsizlig' dardig'a sabr aylamaklik yaxshidir,
Yorlig' istab vafosizlarga yor o'lmaq abas.
Ogahiy, rahmu vafo husn ahlining ko'nglida yo'q,
Bas, alar oldida ko'zdin ashkbor o'lmaq abas¹.

“Abas” radifli bu g'azalda shoir—oshiqning sevgiga bo'lgan chuqur, jiddiy qarashi yana boshqa tomondan yorqin ifoda etilgan. Sevgidan maqsad faqat husnga muhtalo bo'lish emas. Sevish uchun yorning husni kifoya etmaydi. Sevgi vafo-sadoqatga asoslanmog'i kerak. Vafo-sadoqat kishining ruhiy boyligi, ichki dunyosiga xos fazilatdir. Shoir har bir ko'ringan go'zalga ko'ngil qo'yib, unga o'z ixtiyorini berib qo'yishni, muhabbatga jiddiy qaramaslikni yengiltaklik deb baholaydi. Demak oshiq—shoir qarashicha, sevish—aqldan tashqari, biror jiddiy maqsaddan tashqari, faqat husn qurboni bo'lish emas. “Ixtiyor ilgin berib, beixtiyor o'lmaq” foydasiz, der ekan, shoir sevgida aqlning hal qiluvchi o'rnini ta'kidlaydi. Chunki kishi harakatida aql yetakchi rol o'ynaydi. Agar yorda vafo bo'lmas ekan, u sevgiga, shunday ulug' tuyg'uga, hurmatga arzimaydi. Vafosiz yorga ko'ngil bergandan, yorsiz o'tgan afzal. Ogahiy lirikasining boshqa qator g'azallarida ham shu fikrlar takror-takror ta'kidlanadi:

Ishq ichra kim kom istasa bo'lmoq anga nokomot shart,
Kim rohat etkanga talab chekmak erur olom shart.
Ushshoq ko'nglin olg'ali xulqu malohat shart erur,
Yo'q sarv aso qomatu ruxsorai gulfom shart².

¹ “Ogahiy devoni”, 43-bet.

² O'sha devon, 103-bet.

Bu parchada ham sevgi uchun ma'shuqaning husnidin tashqari, unda qandaydir ichki, ruhiy boylik, go'zal qomat va guldek chehradan tashqari, yaxshi xulq bo'lishi shart qilib qo'yiladi

Yana:

O'zga yuzni ne ko'ngul birla tamosho aylaram,
Kim rusumi dilrabolig' keldi dildoring'a xos¹.

Yana:

O'zga yuzni ne ko'ngul birla tomosha aylaram,
Kim ko'ngul maqsudi ul ruxsori dilkashdur mango².

Yana:

Demang ilgidin chekib qo'l, o'zga sho'x ilgini tut,
Qaysi oqil tashlabon gulni xorxor ilgiga³.

Shu keltirilgan baytlarda ham sevgida vafo, sadoqatning muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu misollarda yana muhim bir narsani qayd qilish lozim bularda "har gulning hidi boshqa" tarzida sevgini vulgarlashtiradigan, sevgiga egoistik maqsad bilan yondashib, unga fahsh tus beradigan qarashlar fosh etiladi. Oshiqning ko'ngli doim o'z yorida, uning tuyg'ulari didiga, yuragiga monand bir ayolga muhabbat bilan band.

"Abas" radifli g'azalga va yuqorida keltirilgan baytga e'tibor bilan qarasak, "sho'x" so'zi, odatda, "yor", "mahbuba", "dilbar" tarzida ma'shuqani ta'riflovchi so'zlarga qaraganda boshqacha, ko'proq kinoyali, salbiy ma'noda ishlatiladi. Bu orqali shoir chin sevgi bilan unga yengil qarash, "sho'xlik" deb qarash chegarasini belgilamoqchi bo'lsa kerak. Oshiq fikricha, ma'shuqaning ichki dunyosi, vafo, sadoqat, odobi uning go'zalligi bilan bevosita bog'langan. Vafosizlik qilib har sho'xga ko'ngil berish sevgiga muvofiq emas. Yor gul bo'lsa, sho'x-tikan, shu sababdan hech bir aql gulni tashlab, xorni qo'liga

¹ "Ogahiy devoni", 100-bet.

² O'sha devon, 13-bet

³ O'sha devon, 14-bet.

olmasligi, unga ko'ngil bermasligi lozim. Shuning uchun ham shoir "Abas" rasifli g'azalida mol-dunyosi yo'q, ammo ma'naviy dunyosi boy bo'lgan oshiqdan mol dunyoli, zari ko'p bo'lgan oshiqni afzal ko'rgan ma'shuqani kinoya bilan "sho'x" so'zi bilan ta'riflaydi. Aslida esa oshiqning tuyg'usi, vafo-sadoqat ma'shuqa uchun befarq bir narsa emas:

Umrlar ichding firoqim zahrini, emdi sango
Voqif qildim lazzati bo'si kanorim bu kecha.

Lekin ma'shuqaning oshiqqa bu xildagi mayli faqat uning yor uchun firoq chekkaniga achinishi yuzasidan maydonga kelgan hodisa emas:

Ishqim ichra ko'zu ko'nglung pok erkanini bilib,
Hosil etmak maqsading bo'ldi shiorim bu kecha¹.

Ma'shuqa aytgan bu fikrlar nihoyat muhim. Chunki yuqorida aytganimizdek, mavjud sharoitga ko'ra, Ogahiy intim lirikasida ma'shuqa doim shoirning diqqat markazida tursa-da, uning ichki dunyosi juda kam ochiladi. Ma'shuqa obrazi ko'pincha oshiqning tuyg'ulari orqali unga muhabbat izhor qilish, bevafoolidan zorlanish yo'sinida ochiladi. Lekin ma'shuqa tomonidan bayon qilingan shu qisqa fikrlarda uning inson sifatida asl qalbi, muhabbatga bo'lgan munosabati juda chuqur, yaxshi ifodalangan. Hech bir ayol o'z yoshligi, go'zalligi, o'zining ko'ngil xushligi uchun mayna bo'lishini istamaydi. Bu satrlarda ma'shuqa oshiqning unga munosabatida "ko'zu ko'ngli pok" bo'lishini hamma narsadan muhim deydi. Shu satrlar bilan shoir ma'shuqa obrazini, xarakterini juda yaxshi ochib beradi. Ularda o'z qadr-qimmatini bilgan, sevgi tuyg'usining hurligi, sofligini hurmatlagan ma'shuqa obrazi gavdalanadi. Ogahiy lirikasida bu xil fikrlar juda ko'p joyda uchraydi. Bu sevgi va oila masalasida Ogahiy o'z davrida ilg'or fikrda turganini ko'rsatadi.

¹ "Ogahiy devoni", 189-190-bet.

Biz yuqorida misollar orqali Ogahiy lirikasida oshiq va ma'shuqa obrazlarining yoritilishi, ularning sevgiga bo'lgan jiddiy, sog'lom munosabatlarini bayon qildik. Ogahiy lirikasida oshiq va ma'shuqaning obraz va xarakterlari ularning sevgi bilan bog'liq bo'lgan turli tuyg'u, kechinmalarini ifodalashda ham keng ochiladi. Hatto bu kechinma tuyg'u ifodalariga shoir ijodida juda ko'p o'rin beriladi. Ayniqsa, ma'shuqaning go'zalligini tasvirlash, shu go'zallikka maftun bo'lish ifodasi, go'zallik obektlarining ko'pligi, tasvirlarning xilma-xilligi katta o'rin egallaydi. Bu tabiiy, chunki go'zallikdan maroqlanish ham, sevgi tuyg'usidek, insonning tabiiy hissi zaminidan yuzaga kelgan. Insoniyat madaniyati tarixida barcha xalqlar adabiyotida va san'atida inson go'zalligi tasviriga juda ko'p e'tibor berilgan. O'tmishdan inson go'zalligini tasvirlovchi o'lmas yodgorliklar saqlanib qolgan. Masalaning muhim tomoni shundaki, lirik shoir inson yoki tabiat go'zalligini tasvirlar ekan, tasvirlangan obekt, hodisa o'quvchiga qanday zavq, ta'sir kuchida. Inson go'zalligi uning butun a'zolarining tuzulishidan maydonga keladi. Bunda har a'zoning o'z go'zalligi, o'ziga xosligi, o'ziga xos ta'siri bor. Bularning hammasini bir vaqt, bir ko'rinishda tasvirlab, ta'sir va estetik zavq tug'dirib bo'lmaydi, konkret kartina yaratilmaydi. Shu tufayli yor go'zalligini tasvirlovchi tuyg'ular lirik asarda ancha salmoqlidir. Ogahiy lirikasida yorning go'zalligiga bag'ishlangan tuyg'ular ifodasiga ham ancha e'tibor beriladi. Ba'zi misollarga murojaat qilamiz:

Xurshid yerga kirgusi hart un kamoli sharmdin,
Husn avji uzra jilva to qildi musaffo orazing,
Zohid tilar jannat gulu sarvin, magarkim ko'rmamish
Lutf ichra zebo qomating, husn ichra humor orazing.
Joning uchun rahm aylabon ko'rguz yuzingkim, hajr aro
Jonimg'a yetdim aylabon ko'rmak tamanno orazing .
Ko'z solmog'um jannat ars g'ilmonu har ochsa yuzin,
Kim maqsadim qo'ying aro qilmoq tomosha orazing.

Yana:

Yorutmas tiyra shomim ochsa yuz xurshid anvar yuz,
Niqobi abridin to ochmasa ul moh paykar yuz,
Mani ko'rgach, fig'onkim, parda ostig'a yuzin tortar,
Raqibi ollida lekin ochar har dam mukarrar yuz.
Yuzi hijronida gar o'zga boqmasam tong yo'q.
Ki taskin iztirobi xotiring'a bermagay har yuz.
Guli ruxsori ishqining g'ami ichra ajab ermas,
Xazon bargi kabi bo'lsa meni mahzung'a asfar yuz,
Yuzin bir ko'rmak aylab orzu o'lmaqg'a yetmishman,
Tarahhum aylabon ko'rguzmas also ul sitamgar yuz¹.

Har ikki g'azalda oshiqning yorning yuzi, husni yoqimlilikini tasvirlovchi tuyg'ulari ifodalangan. Bular garchi yuzining go'zalligiga bag'ishlangan bo'lsa-da, tuyg'ular ifodasi takrorlanmaydi. Birinchi g'azalda ko'proq yor yuzi, husni mubolag'ali tasvir qilinsa, ikkinchi g'azalda oshiqning yorning go'zal yuzini ko'ra olmasdan tortayotgan azob-iztirobi juda bo'rttirib ifodalanadi. Lekin har ikki g'azal mustaqil holda ma'shuqaning yuzi nihoyat jozibador, go'zal ekanligi tasvirini beradi. Har ikki g'azal o'z yo'lida oshiqning yoriga sadoqatini, uning butun tuyg'ulari faqat yoriga bog'liq ekanini aks ettiradi; oshiq uchun yorning yuzi quyoshdan ham ravshan, u jannat hur-g'ilmonlaridan ham yoqimli.

Oshiq obrazining maqsadga erishishga ishonchi, optimistik harakteri uning o'z yori bilan uchrashgandagi xursandligi, xushvaqtligi ifodasida ham yaqqol ko'rinadi:

Iyd oqshomida guldek taningg'a kiygan,
Zardor tugma birla rangin qabo muborak.
Kirguzma suhbatingg'a hargiz raqibnikim,
Ul shumning qudumi bor asru nomuborak,
Mehru vafo manga, ey husn ahli shohi, qilding,

¹ "Ogahiy devoni", 79-bet.

Bo'lsin ilohi ushbu mehru vafo muborak,
Tokim manga qulum deb qilding xitob, yuz shukr,
Kim bu karamdin o'ldi toil mango muborak¹

Yana:

Bu kecha ul oy kulbai ahzonima keldi,
Ko'ngli chidamay nolai afg'onima keldi.
Ko'kdin tilagan komim o'lub erda muyassar,
Xurshid ochib chehra shabistonima keldi.
Ushshoq aro bo'lsam, ne ajab, emdi g'anikim ,
Ul ganji vafo go'shai vayronima keldi².

Bu she'rda tuyg'ular nihoyat quvnoq, hayotbaxsh; oshiqning hijron, firoq tuyg'ulari boshqa o'rinlarda qanchalik chuqur hayajon bilan ifodalangan bo'lsa, visol onlarini va ma'shuqaning iltifotini bayon qilgan bu satrlar shunchalik baland ruh bilan kuylangan. Bu tuyg'ularda insonning hayotga, yashashga bo'lgan havasi, muhabbati ravshan ko'rinadi. Shu tariqa, Ogahiy lirikasida oshiq obrazi hayotni, yashashni jondan sevuvchi, shu yo'lda kurashga chaqiruvchi kishi sifatida gavdalanadi. Natijada uning hasrat-nadomatlari hayot dushmani bo'lgan jamiyatga qarshi norozilik tusini oladi.

Ogahiy lirikasida juda ko'p joyda shoirning mayga murojaat qilganini ko'ramiz. Hatto, uning "sharbat", "qadah" radifli maxsus g'azallari ham bor. "Soqiy", "jom", "may" Ogahiyda ham ko'p uchraydi. Bular hammasi rind obrazi bilan bog'langan. Ogahiy qayda va qay tariqa bo'lmasin, sharob haqida gapirar ekan, bu bilan mayxo'rlikni tashviq qilmoqchi yoki mayxo'rlik inson uchun fazilat demoqchi emas. Ma'lumki, may islom dini tariqatida harom hisoblanib, mayxo'rlar mast holda qo'lga tushsalar din ahllari tomonidan turli jazolarga tortilgan. Ular o'z gunohlari uchun narigi dunyoda "do'zaxga" tushadi deyilgan.

¹ "Ogahiy devoni", 123-bet.

² O'sha devon, 203-bet.

Ogahiy o'z lirikasida may haqida gapirar ekan, asosan, din va din ahllarining riyokorligini fosh etishni ko'zda tutadi. Biz yuqorida mayni harom deyuvchi zohidlarning o'zlari yashirin mayxo'rlik qilganlari haqida gapirgan edik.

Rind obrazi bilan bog'liq bo'lgan boshqa g'azallarda ham Ogahiy may va rind obrazi yordamida bu masalada din ko'rgazmalariga qarshi bayon fikr etadi; so'zda taqvodor bo'lib, amalda o'z so'ziga xilof ish qiluvhci zohidlarning yaramas ichki dunyosini ochib tashlaydi:

Ul pari ishq i aro jonbozlar ko'pdur, vale,
Pokboz ermas biri bu oshiqi miskin kabi.
Garchi maydin rindlar oluda aylarlar etak,
Lek tardoman emaslar zohidi xudbin kabi¹.

Shoir o'zining ishqda qalbi sof ekanligini bayon qilish bilan inson uchun ushbu narsa afzalligini ilgari suradi. Shu fikrning ifodasi uchun rind va zohidni taqqoslaydi. Garchi rindning etagi maydan iflos bo'lsa ham, bu uning ichki dunyosi, ruhuga, yuragi sofligiga ta'sir etmaydi, chunki kir etakni yuvib tozalab bo'ldi, ammo zohidning tardoman-iflos qalbi hech yo'l bilan tozalab bo'lmaydi, shu sababdan rind zohiddan afzal. Shu tariqa Ogahiy rind obrazidan zohidni fosh qilish uchun foydalanadi. Rind va may haqida bu kabi fikrlarga Ogahiy lirikasida ancha joyda duch kelamiz.

Xonaqoh ixchra ko'p o'lma bu sifat aftodakim,
Kir xarobat ichrau bo'lg'il tarab omodakim,
Aylagil sajjoda tarkin, sen kimu sajjoda kim,
Senu mendeklarga xud bu korgohda ne hisob.

Ko'rki men taqvi tanin may o'ti birla dog'ladim,

¹ "Ogahiy devoni", 195-bet.

Panjai rohat bila toat ko‘zin tufrog‘ladim,
Qilg‘ali ayshu tarab jur‘at ila bel bog‘ladim,
Gar karam daryosining mavji budurkim, chog‘ladim,
Qoni o‘z bo‘ynig‘a kim ishratdin etsa ijtinob¹.

Keltirilgan parchalar Ogahiyning Navoiyga bog‘lagan taxmisidan. Bu yerda ham, yuqorida bayon etilganidek, rind, may orqali taqvodor, riyokor zohidlar fosh etiladi. Bu yerda ilgari surilgan yana bir fikr—hayotdan lazzatlanish g‘oyasidir. May bu yerda dunyoning lazzati, xursandlik simvoli sifatida ta‘riflanadi. Ogahiy shu muxammasda garchi taqvodor zohidlar dunyoda ayshu tarabni, xursandlikni man etsalar-da, men toat-ibodatni yig‘ishtirib qo‘yib, rohat qilishga bel bog‘ladim, deydi va bu fikrlarini Navoiyning “qoni o‘z bo‘ynig‘a kim ishratdan etsa ijtinob” satri bilan Navoiydan tasdiqlaydi; Navoiy obro‘yidan foydalanadi.

Mayni xursandlik simvoli sifatida ifodalash Ogahiy g‘azallarida juda ko‘p joylarda uchraydi:

Go‘shai bog‘ ichra bazm aylab ichib jomi tarab,
O‘zni sarxush aylali bir necha kun laylu nahor,
Kim g‘animatdur shabobu ham bahor ayyomikim,
Turmag‘ay bir hol ila albatta davei ro‘zig‘or².

Bu satrlarda ham kishi hayot ekan, dunyoning lazzatlaridan bahramand bo‘lishi kerak, degan fikr ilgari suriladi. Shoirning bazm tarab va mayga bo‘lgan rag‘batini inson qalbiga rohat bag‘ishlovchi bahor fasli va insonning shabbob — yigitlikdavri orqali ifodalashi tasodifiy emas. Inson umrining bahori — yigitlik davrida dunyo go‘zalligini chuqur sevadi; bu davrda xursandlikka havas kuchli bo‘ladi. Shunday ekan, din ahllari, zohid, taqvodorlarning insonni dunyo lazzatidan mahrum qilishga urinishlari o‘ta ketgan haqsizlik, jabrdan boshqa narsa emas. Shoir shunga qarshi

¹ “Ogahiy devoni”, 243-bet.

² O‘sha devon, 63-bet.

chuqur norozilik bildiradi. Din va din ahllari qancha man qilmasinlar, do‘zax azoblari bilan qanchalik qo‘rqitmasinlar, insondagi hayotga muhabbat, uning hayotdan mumkin qadar ko‘proq foydalanishga, maroqlanishga intilishi bundan ustunlik qiladi.

Ogahiy lirikasida rind obrazi yoki personajning mayga murojaati inson ruhining g‘amginligi tufayli yuzaga keladigan hodisa sifatida ham yuzaga chiqadi. Ogahiyning bir musaddasi boshidan oxirigacha rind obraziga bag‘ishlangan. Unda rindni Ogahiy quyidagicha ta’riflaydi:

Ey xusho rindiki, etmas davron sitami,
Yiroq o‘lmish tanidin sangi havodis alami,
Ilmas aning nazarig‘a bu jahon beshu kami,
Bilki teng oldidadur dahr vujudu adami,
Tobakay dahr g‘ami qaydig‘a pobast bo‘lay,
Soqiyo, ber manga bir jomki, sarmast bo‘lay¹.

Yana:

Necha davron sitamidin yer uzra past bo‘lay,
Ohu, ashku, alamu, dart ila hamdast bo‘lay,
Istaram emdi rind ahlig‘a vobast bo‘lay,
Jomi may nash‘asidin zo‘ru zabardast bo‘lay,
Tobakay dahr g‘ami qaydig‘a pobast bo‘lay,
Soqiyo, ber manga bir jomki, sarmast bo‘lay².

Bu yerda Ogahiy rindni dunyo haqida o‘ylamaydigan, unyoning bor- yo‘qligi, ko‘pi-ozu bilan qiziqmaydigan, faqat o‘z huzuri uchun yashaydigan odam sifatida ta’riflaydi. Undan kishi dunyoning g‘ami, sitamidan ozod yashaydi, shu sababdan endi men ham o‘zimni rindlar qatoriga qo‘shayin, degan fikrni bayon qiladi. Bu satrlarga shoir go‘yo shunday rindlar hayotiga qandaydir muhabbat bilan

¹ “Ogahiy devoni”, 308-bet.

² O‘sha devon, 307-bet.

qaraganday bo‘ladi, ammo fikr bunda chuqur kinoya tarzida aytilagan. Chunki shoirning rindlar hayotiga bunday munosabatda bo‘lish sababi musaddasning keyingi satrlarida to‘la ochiladi:

Toki aqlu, xiradu, hush ila duchor o‘ldim,
G‘amu, dardu, alam ilgiga giriftor o‘ldim,
Bo‘lmadim shod damiyu, tunu kun zor o‘ldim,
Baridin emdi men g‘amzada bezor o‘ldim,
Tobakay dahr g‘ami qaydig‘a pabast bo‘lay,
Soqiyo, ber manga bir jomki, sarmast bo‘lay.

Shiddati javri falak o‘yla nazor etti mani,
Qim alam bazmida g‘am changiga tor etti mani,
Har nafas necha tuman nolag‘a yor etti mani,
Zaxmai kulfat ila ojizu zor etti mani,
Tobakay dahr g‘ami qaydig‘a pobast bo‘lay,
Soqiyo, ber manga bir jomki, sarmast bo‘lay¹.

Bu satrlarda shoir juda ustalik bilan va ajoyib yo‘sinda o‘zining hayot, jamiyatga bo‘lgan noroziligini ifoda etadi. Hayot shu qadar yaramas, jirkanchki, hech bir aql, insof egasi bu dunyoda hushnud bo‘lib yashashi mumkin emas. Aqlli bo‘lish juda ham azob, chunki hayotda har qadamda, qayga nazar tashlasang, faqat hafagarchilikga duch kelasan, “aqlu xiradu, hush ila duchor o‘lganimdin” buyon faqat azob tortaman, shuning uchun hayotdan ham, aqldan ham bezor bo‘ldim, yaxshisi—bularning hammasini tark etib, rindga o‘xshab beg‘am yashay, aqlu-hushni zaiflashtiradigan, dunyo g‘amlarini unutishga yordam beradigan may bilan o‘zimni bir pastunutayin, deydi shoir. Bu yerda rind va may shoirga ijtimoiy qarashlarini ifodalash uchun vosita bo‘lgan. Bu satrlar chuqur kinoya bilan

1 “Ogahiy devoni”, 307-bet.

yozilgan, chunki Ogahiy lirikasining qahramoni dunyo haqida, kishilar hayoti haqida g'am tortgan, jamiyat, inson hayotini tuzatish yo'llarini axtargan mutafakkir, aqlli, g'ayratli, shaxsdir. Shu sababli rind obrazi, garchi yuragi sofligi, dunyoning beshu kam bilan qiziqmasligi bilan zohidlardan, mol-dunyoga berilgan kishilardan afzal qilib talqin etilsa-da, Ogahiy lirikasida biz o'ylagan ma'noda— kishilarning tarbiyachisi, namuna bo'ladigan ijobiy obraz sifatida kelmaydi. Shoir o'zining rindlarga moyilligini aqldan bezor bo'lish natijasi deb ma'lum darajada kinoya bilan tushuntirmoqda. Shu sababdan, rind obrazini ideallashtirishga hech qanday asos yo'q.

Shoirning takrorlanib kelayotgan "Tobakay dahr g'ami qaydig'a pobast bo'lay" satridan so'ng soqiyga may deb murojaat qilishi kishilar juda azob-alam tortgan vaqtlarida bir oz bo'lsa-da, yupanish, aldanish uchun may ichishga majbur bo'lganlaridan darak beradiki, inson ruhining ma'lum holatiga xos bo'lgan bu hodisani inkor qilish haqiqatga xilof bo'lar edi.

Man xastag'a matlub erur rohatu roh,
Ey soqiy gulchehra, keturgil aqdoh,
Tokim man ani nafas-nafas sipqoribon,
Davron g'amidin topay bir lahza faloh.

Yana:

Tut dam-badam, ey sarv gulandom, qadah,
Kim ichmoq alingdin mangadur kom, qadah,
Ishqing g'amidin ko'ngul erur betoqat.
Etkursun anga zamoni orom qadah.

Ravshanki, bu to'rtliklarda ham mayga murojaat, yuqoridagi aytilganidek, g'am-g'ussadan tasalli toppish sifatida talqin etiladi, shu tarzda Ogahiy lirikasida hayot va inson turmushida ro'y berib turadigan hol ta'kidlanib, undan Ogahiy o'zining ijtimoiy qarashlari-din, din ahllarini fosh qilish, hayotdan noroziligini ifodalash vositasi sifatida foydalanadi.

III bob

Lirik qahramon yaratishda poetik mahorat

Ogahiy lirikasida dunyo, hayot haqida chuqur, mazmundor fikrlarga inson hayoti, yuragi bilan bog‘liq xilma-xil tuyg‘u va kechinmalarga boy. Bu fikr va tuyg‘ular real hayot bilan bog‘liq holda chinakam inson tuyg‘ulari sifatida ifoda etiladi. Shu sababli, uning g‘azallarini o‘qir ekanmiz, ularda ifoda qilingan fikr, tuyg‘ular bizning borlig‘imiz, ruhimizga chuqur ta’sir etadi. Ulardan estetik zavq olamiz. Ular ko‘pincha shunday mahorat bilan beriladiki, ba’zan biz ular ta’siriga juda ham berilib ketamiz. Ogahiy ijodiga bunday ta’sir kuchi baxsh etgan narsa, shubhasiz, uning poyetik mahorati bilan bog‘liq hodisadir.

Poyetik mahorat haqida so‘z borar ekan, shoir o‘z ijodida poyetik vositalardan, yana to‘g‘rirog‘i, so‘z–til boyliklaridan qancha ustalik va mohirlik bilan foydalanganini ko‘zda tutamiz. Chunki hayotni, kishi his-tuyg‘ularini ifoda qilishda, adabiyotning boshqa janrlaridagidek, shoirning ham asosiy quroli til, so‘zdir. She’r— tili, o‘z tuzilishicha, oddiy so‘zlashuv tilidan, shuningdek, proza asarlari tilidan boshqacha o‘ziga xos xususiyatga ega. She’r tili uchun xarakterli narsa- bunda so‘z ifodasida hayajon ta’siri kuchliligidir. Chunki lirikada hayot va undan olingan ta’sir kishi ichki dunyosi orqali, subektiv tuyg‘u ta’siri orqali beriladi, bu hol uning ifodasida ma’lum shaklni, ma’lum tuzilishni talab qiladi. Buning uchun shoir o‘z xalqi tilidagi barcha so‘z boyliklaridan, gramatik, sintaktik qoidalardan, tilga xos har qanday hodisalar, pauzalar va hokazolardan foydalanadi. Yana tilda mavjud xususiyat asosida she’rda vazn, qofiya, radif, o‘xshatish, mubolag‘a, kinoya va boshqa poyetik vositalar keng qo‘llaniladi. Bular hammasi she’rdagi shaklga xos omillardir. Lekin shu formal narsalar barchasi she’r uchun juda muhim, bularsiz, shular vositasidan tashqari, shu vositalarni to‘g‘ri qo‘llamasdan lirika talabiga mos fikr, tuyg‘u, kechinmalarni ifodalab bo‘lmaydi, ya’ni she’r yaratib bo‘lmaydi. Vazn, qofiya va boshqa poyetik vositalar har qaysisi alohida-alohida biz istagan mustaqil fikr yoki hayajon harakati jarayonini bera olmaydi, lekin ular hammasi birlikda shoirga o‘z fikr, tuyg‘ularini, real hayotni

ifodalashda katta xizmat qiladi. Bu formal vositalar hammasi mazmunni yoritishga, uni yorqin ifodalashga xizmat qiladigan va bevosita mazmundan va uning talabidan kelib chiqadigan hodisalardir. Shu sababdan, poetik mahorat haqida soʻz borar ekan, shoirning ana shu vositalardan qanchalik toʻgʻri va ustalik bilan foydalanganligi koʻzda tutiladi.

Poyeziyada forma masalasi, shubhasiz, nihoyat muhim va nozik masala, lekin bunda mazmun va shakl birligi, shaklning mazmunga bogʻliq boʻlishi, shunga xizmat qilishi asosiy masaladir, bunga rioya qilmaslik formalizmga, poeziya, lirika mazmunining puchligiga olib boradi. Shuning natijasida poyeziya–oʻzining asosiy vazifasi-xalqni tarbiya qilishga yaroqsiz boʻlib qoladi. Progressiv fikrli shoirlar har doim poyeziya mazmunini boyitish, uning tarbiyaviy taʼsirini kuchaytirish yoʻlida ish olib borganlar, oʻz ijodlarida buning namunasini berish bilan birga, bu haqda koʻp qimmatli fikrlar ham bayon qilganlar. Poyeziyaning mazmuni va shakli masalasiga Ogahiy ham katta eʼtibor beradi.

Ogahiy, naming aro dilsoʻz mazmun boʻlmasa,
Soda ashʻoring bilan devonu daftardan na haz¹.

Yana:

Sheʻring oʻlgʻay, Ogahiy, ishq ahligʻa muzdan sovuq ,
Dard oʻtidin boʻlmasa maxlut agar mazmungʻa oʻt².

Yana:

Ogahiy kibi maʼni husnigʻa berib oro,
Dilkusho iboratgʻa tilni aylabon goʻyo,
Safhagʻa surib bu dam xomai farah afzo,
Yor laʼlidin harfe ayladim Amir insho,
Ey koʻngul, bu gavharni jon ichida pinhon qil³.

¹ “Ogahiy devoni”, 106-bet.

² Oʻsha devon, 39-bet.

³ Oʻsha devon, 283-bet.

Keltirilgan misollarda Ogahiy she'rdagi mazmun muhimligini juda yorqin va to'g'ri ifodalagan. Bu fikrni ta'kidlash uchun Ogahiy mazmunga boy bo'lmagan she'rni "muzdin sovuq" deb keskin ibora o'xshatish ishlatadi. U yana mazmundan xoli bo'lgan ijodda hech qanday, ma'no foyda bo'lmaganini ta'kidlaydi. Bunga o'xshash misollarni Ogahiy ijodidan juda ko'p keltirish mumkin.

Biz Ogahiyning Amir g'azaliga bog'langan muxammasidan shu parchani ataylab keltirdik, chunki bunda Ogahiy she'ridagi barcha formal vositalar mazmunga xizmat qilish zarurligi haqidagi fikrni juda ravshan bayon etadi. Chunki u dilkusho iboralar, farah afzo so'zlar ma'ni husniga oro berishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu yerda Amirga o'git-nasihat tariqasida she'rdagi ma'noga e'tibor berish zarurligi aytilib, kinoyali ravishda Amir g'azallarining ma'nosizligiga norozilik bildiradi.

Ogahiyning ijod uchun yana bir talabi, unda haqiqatni bayon qilishdir:

Xalq aro gar ogoh esang, Ogahiy,
Beg'arazar so'zni desang, Ogahiy,
Chunki erur boshdin-ayoq chin so'zing,
Lek kerakdur amal etsang o'zing.
Gar amaling bo'lmasa, ne foyda,
Barcha so'zing bo'lg'usi befoyda.

Demak, Ogahiy ijodda mazmun haqida gapirar ekan, bu mazmunda haqiqat ifodalanishini ta'kidlaydi, shu bilan birga, yana ijod uchun shoirning samimiyligi, so'zi bilan ishi o'rtasida farq bo'lmasligi ko'rsatiladi. So'zi boshqa, ishi o'zga bo'lishi umuman inson uchun fazilat emas, nuqson, ammo Ogahiy bu yerda bu umumiy haqiqatni bayon qilish bilan birga, poyeziyadek olijanob sohaga kirmoqchi bo'lgan shoirlarning yuragi musaffo, qalblari esa har qanday g'arazdan xoli bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi, uning o'ziga bo'lgan xitobida butun ijod egalari- shoirlar nazarda tutiladi.

Ogahiyning bu fikrlari juda muhim. Adabiyot, jumladan, poeziya ideologiyaning muhim va nozik sohasi. Chinakam shoir inson tarbiyasi sifatida biron fikrni ko'tarib chiqmoqchi bo'lsa, dastlab u, shubhasiz, beg'araz, haqiqatgo'y, ko'zda tutilgan ulug' idealga chin yurakdan berilgan, samimiy bo'lishi kerak. Shunday maqsadga samimiy bo'lmasdan, sun'iy va soxtalik bilan ijod qilishga urinish bekorchi ketgan mehnatdir. Shoirlik, ijod ishi – sof yurak bilan xalq ommasi maqsadlarini ko'zda tutgan ulug' ideal uchun kurash mahsuli bo'lishi kerak. Adabiyotda o'z xalqini sevgan, shu xalq baxt-saodatini o'ziga ideal qilib, shuni kuylagan ijodkorlarga chinakam yuksak badiiy asarlar yaratganlar, o'z xalqining tarbiyachisi bo'lganlar. Ogahiy shu keltirilgan parchalarda ijodda haqiqatchi va beg'araz bo'lish, so'zi bilan ishi bir fikrini ilgari surib, ijod egalarining ulug' maqsadli kishi bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Ey ko'ngul, odam xayol aylab dema nodong'a so'z,
Chunki ul inson emas, topsang degil insong'a so'z.
Oni xor etma debon har hushi yo'q hayvong'a so'z.
Vah, na yanglig' bilgusi hayvon guharning qadrini,
Kim topar haz etsa ul kunjorau somong'a so'z.
.....
Olam ichra barcha ishdin qattig'u dushvordur,
Ogahiy, ma'qul qilmoq behayo nodong'a so'z¹.

Ravshaki, Ogahiy so'zni, ijojdni nihoyat darajada ulug'laydi. G'azal mazmuni shu bilan cheklanmaydi, Ogahiy qarshicha, so'z, ijod havoga bekorga otilgan nishonsiz o'q emas, u ma'lum maqsadga qaratilgan bo'ladi; lekin bu maqsadni har qanday johil, nodon, ahmoq tushuna olmaydi, shuning uchun u johillikni qoralash bilan birga, o'z ijodida bayon qilingan fikr-maqsadlar jamiyatdagi so'z va so'z orqali bayon qilingan gavharlar qadriga yetadigan kishilarga qaratilganini ta'kidlaydi. Demak, Ogahiy she'r, san'at uchun uch asosiy muhim fikrni –

¹ "Ogahiy devoni", 89-bet.

mazmunning ahamiyatini, begʻaraz, sof yurak bilan haqiqatni gapirishni, soʻz qadriga yetadigan kishilarni nazarda tutish zarurligini uqtiradi. Ogahiyning ijod, sheʻr haqidagi bu qarashlari naqadar sogʻlom va hanuzgacha oʻz qimmatini yoʻqotmaganligi oʻz-oʻzidan ravshan.

Ogahiy oʻz ijodida bu qarashlariga qattiq rioya qiladi va asarlarida bu qarashlar oʻz ifodasini topgan. Darhaqiqat, uning lirikasi chuqur mazmun bilan sugʻorilgan va u zoʻr mahorat bilan berilgan.

Biz yuqorida sheʻr tili, shakl tuzilishiga koʻra oʻziga xos xususiyatga ega ekanini aytib oʻtgan edik. Bundan sheʻr uchun alohida soʻz yoki soʻz boyligi mavjud degan fikr kelib chiqmaydi, albatta. Aksincha, shoir ijodidagi tildagi hamma boyliklardan toʻla foydalanadi. Yana sheʻr–tildagi faqat chiroyli, dabdabali yoki yurakka yoqimli soʻzlar yigʻindisi ham emas. Shoirning mahorati– tilda boʻlgan hamma soʻzlar vositasida oʻz maqsadlarini yorqin ifoda qila bilishida, Ogahiy lirikasi bu jihatdan juda ham boy namunalarga ega. Misol uchun uning quyidagi gʻazalini keltiramiz:

Ishrat mayin, ahhob, tarab birla iching siz,
Biz bodai gʻam necha taab birla icharmiz.
Bizga gʻam aro chehra erur oʻylaki zaʻfar,
Siz aysh ila aylang yuzingiz oʻylaki qirmiz.
Bu dardki jonimda erur koʻnglum ochilmas,
Garchi desangiz koʻnglum uchun necha siz biz.
Ham qildi qaro manglayim ustini botib tiz.
Holimni ne bilsun tunu kun fikr ila gʻamda,
Ul xaylki, umrida erur fikr ila gʻamsiz.
Jonim quloqin kessa alam tigʻi agar ming,
Bedard ulus ollida keskancha emas qiz.
Chun Ogahiy aldadi bu dahr arusi,

Shoirning bu mazmundor gʻazalida hech qanday balandparvoz soʻz yoʻq, aksincha, odatda eshitilishi uncha quloqqa yoqmaydigan, hatto, ruhimizga birmuncha qoʻpolroq taʻsir qiladigan “yaro”, “qaro”, “manglay”, “tiz”, “qiz”, “quloq kesmak” kabi soʻzlar ishlatilgan. Hatto, gʻazalning chuqur mazmuni mana shu soʻzlar orqali ifodalanadi. Ogahiy gʻazalida dunyoning yolgʻonchi, bevafoekanligidan qattiq norozi boʻlgan inson tuygʻusini beradi. Shoir faqat dunyoning bevafoqligidan xafa emas, u, asosan, bunday yaramas jamiyatda hech narsa xususida gʻam tortmasdan, faqat oʻz kayfi, maishati bilan mashgʻul boʻlgan insonlarga chuqur nafrat ifoda qiladi. Buning uchun shu qisqa gʻazalda ajoyib kartina yaratadi. Shu kartina orqali dunyodagi ikki xil odamlar xarakteri, ichki dunyosini koʻrsatadi. Birinchi gruppada kishilar dunyo haqida, hayot haqida chuqur fikr yurituvchi, hayotdagi haqsizliklarni koʻra berib, shu haqda fikr yurita berib peshanalari, “manglaylari qaro”, “tizlari yaro” boʻlgan kishilar, chunki fikr, xayol dunyosiga choʻmgan kishining boshi bukiladi, goʻyo peshanasi tizzasiga tusha beradi, ikkinchi tomondan, hech narsa xususida oʻylamasdan, hatto, birovning qulogʻi kesilsa-da, ular uchun kigiz–namat kesgancha taʻsir qilmaydigan maishatparast, begʻam kishilar–maxluqlar obrazi beriladi. Gʻazal ustalik bilan berilishi natijasida oʻquvchida ikkinchi guruh –begʻam kishilarga nisbatan chuqur nafrat uygʻotadi. Gʻazal shunday jonli qilib berilganki, garchi uning bir necha joyida “gʻam” va “dard” soʻzlari ishlatilsada, ularda fikr jarayoni, harakati ifodasi unchalik koʻzga chalinmaydi, taʻsir etmaydi. Butun fikr, hayajonni beruvchi payt haligi qoʻpol eshitiladigan soʻzlar vositasida yaratilgan kartinada toʻplangan. Olingan vazn, bahr ham mazmunga muvofiq boʻlganidan gʻazalning umumiy ruhida hech qanday tantanali kayfiyat sezilmaydi. Gʻazal oʻta hissiyot tuygʻusini ham bermaydi, gʻazalni oʻqiganda fikr ham hayot va jamiyatdagi kishilar haqida chuqur, jiddiy andisha tomon yoʻllanadi. Yaʼni gʻazalning umumiy

¹ “Ogahiy devoni”, 82-83- bet.

mazmuni tuzilishi tuyg‘uga qaraganda aql, fikrga ta’sir qiladi. Nihoyat, g‘azal shu xilda mazmun kasb etish uchun unda to‘la qofiya va radifning bo‘lmaganligini, qofiya o‘rnida, tilda, so‘zda quruq eshitiladigan “z” tovushi – harfi raviy kelganligini ham e’tiborda chetda qoldirib bo‘lmaydi. Agar yanada chuqurroq qaralsa, “z” harfi tilda zulm, zulmat, zo‘rluk, zahmat va boshqalar kabi hayotda alamli hollarni ifodalashda ko‘proq qo‘lganilgani shoir nazaridan uzoqda bo‘lmasa kerak, degan fikrga ham boorish mumkin. Ushbu g‘azal tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ogahiy o‘zbek tili boyliklaridan juda to‘la foydalangan, g‘azal uchun maxsus so‘z, termin tanlab o‘tirmay, ma’noni ifoda qilishga, uni ravshan bayon etishga qaysi so‘z yarasa, o‘sha so‘zlarni ishlata bergan.

She’r uchun forma jihatdan asosiy xususiyat uning vaznli bo‘lishidir. Vazn har bir xalqning til xususiyati bilan bog‘liq hodisa. O‘zbek poyeziyasida juda qadim zamondan ikki xil vazn davom qilib kelmoqda. Xalq og‘zaki adabiyotida barmoq yoki hijo vazni, klassik yozma adabiyotda aruz vazni qo‘llanilgan. O‘zbek shoirlari o‘z sherlarini deyarli faqat barmoq vaznida yozmoqdalar. Aruz vaznida yozilgan she’rlar juda kam uchraydi.

Ogahiy o‘z lirikasida faqat aruz vaznini ishlatadi. Biz uning poyetik mahoratining ayrim xarakterli paytlarini tahlil etamiz. Aruz vaznini tekshiruvchilar aruzning har xil tur hamda variantlarini 180-190 gacha olib boradilar. Ogahiy ham o‘z lirikasida aruzning juda ko‘p va xilma-xil bahrlaridan qo‘llanadi. Ogahiy poyetik mahorati uchun xarakterli narsa – uning g‘azallari va boshqa turli she’rlaridagi vazn asarda berilmoqchi bo‘lgan ruh, kayfiyatiga tamoman mos kelishidir. Ogahiy ijodida vazn asarning mazmunini to‘la, yorqin, real ifoda qilishga xizmat etadi. Uning lirikasi, vaznlarida ro‘y bergan xilma-xillik ana shu ruhiy holat, hayotdan olingan ta’sir xilma-xilligi tufayli ro‘yobga kelgan hodisadir. Shuning uchun uning g‘azallari nihoyat tabiiy va real bo‘lib, o‘quvchiga chuqur ta’sir etadi. Ayrim misollar keltiramiz:

Qo‘yung yig‘layki, ushbu kun sevar yorimdin ayrildim.

Muruvvatlig‘, muhabbatlig‘ vafodorimdin ayrildim.

Bahor vasl aro bir andalibi xush navo erdim,
Etib hijron hazoni, toza gulzorimdin ayrildim.
Hazin ko'nglumni kimga bog'layin, vah, emdikim bukun,
Falak zulm aylabon xushxo'y dildorimdin ayrildim.
G'amu dardimg'a chora kimdin istaykim, mani mahzun
Muinu, mushfiqu diljo'y g'amxorimdin ayrildim.

Yoki:

Ey joni g'amgin mujdakim, bu kecha jononing kelur,
G'uncha dahanu gulbadan sarvi hiromoning kelur.
Mehru vafo rasmin tuzib, javru jafo, tavrin buzub,
Shirin tabassum ko'rguzub, la'li durafshoning kelur.
Xingi saodat markabi, sebi latofat g'abg'abi,
Bog'I malohatda labi gulbargi xandoning kelur.
Anglab g'amida motaming, bo'lmoqqa butun hamdaming,
Yorutg'oli shomu g'aming, sham'i shabistoning kelur¹.

Biz shu ikki g'azaldan olingan parchalarni ataylab bir joyda keltirdik. Bir nazar tashlashdayoq har ikki g'azal ham muhabbat tuyg'ulari bilan bog'langan. Birinchi g'azalda sevgi bilan bog'liq judolik, xafagarchilik tuyg'usi, ikkinchi g'azalda esa sevgi bilan bog'liq visol umidi – xursandchilik tuyg'usi ifodalanadi. Bu mazmun har qaysi g'azalga shakl jihatidan o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Bunarsa dastlab vaznda ko'rinadi, g'azal vaznlari boshqa-boshqa. Birinchi g'azal aruzning "hazaji musammani solim" bahrída yozilgan.

Bu g'azal ruknlari quyidagicha ajratiladi:

Qo'yung yig'lay-ki ushbu kun-sevar yorim-din ayrildim,
Mafoilun-mafoilun-mafoilun-mafoilun.

¹ "Ogahiy devoni", 72-bet.

Ikkinchi g‘azal “rajazi musammani solim” bahrida yozilgan bo‘lib, uning ruknlari quyidagicha bo‘linadi:

Ey joni g‘am-gin mujdakim- bu kecha jo-nonong kelur,
Musta‘filun- Musta‘filun- Musta‘filun- Musta‘filun.

Bundan ravshanki, she‘r misralarida uzun, qisqa tovushlarning ma‘lum o‘rinda takrori– ruknlararo qisqa pauza bo‘lishi she‘r o‘qilishiga ma‘lum ritmni maydonga keltirgan. Bu hodisa g‘azalning umumiy ruhiga ma‘lum darajada ta‘sir etgan. O‘qigan vaqtda g‘azallar boshqacha-boshqacha ta‘sir etadi. Bu faqat vazn natijasida ro‘y bergan hodisa emas. G‘azaldagi tuyg‘u-hislarni berishda misra, baytlar va umuman, g‘azal mazmuni bilan bog‘liq boshqa vositalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu g‘azallar mazmuni, shaklni qisqacha ko‘zdan kechiraylik. Birinchi parchada yordan, yurakka eng yaqin kishidan ayrilish–hijron, ya‘ni sevgi bilan bog‘liq alamli, xafagarchilik tuyg‘ulari ifodalanadi. Bu parchada olingan vazn va so‘z tizimlari hammasi o‘sha ruhga muvofiq yordan ajralish natijasida ro‘y bergan hazinlik tuyg‘usini yorqin, ta‘sirli qilib ifodalashga qaratilgan. “Vasl davrida bulbuldek xush navo edim, ammo hijron xazoni yetib, gulzorimdin ayrildim”. Bunda yordan ayrilish tuyg‘usi bahordan, bulbullar sayrashidek orom bag‘ishlovchi narsalardan ayrilish tarzida beriladi, ya‘ni xushvaqtlikni xafagarchilik bilan almashuvi sifatida o‘xshatishlar ishlatish bilan hazinlik tuyg‘usi brogan sari kuchayadi.

Ammo bu yerda shu hazinlik tuyg‘usini juda yaqqollashtirgan, xuddi shunday ruhni kuchaytiradigan yana boshqa kuchli vosita ham bor, bu “muruvvatlig‘, muhabbatlig‘”, “muinu, mushfiq, diljo‘y, g‘amxo‘”, “humoparvozu ma‘ni sayd” tarzidagi sifatlarning takroridir. Chunki yordan, vasldan ayrilgan kishi yordagi yaxshi xususiyatlarni eslashi psixologik tomondan juda ham oqlanadi, chunki hijron alamini tug‘dirgan narsa–o‘sha yaxshi narsalardan ajraganlik tuyg‘usidir. Yana shunday qaraganda, g‘azaldagi hamma qofiyalarda ham yorda bo‘lgan yaxshi fazilatlar takrorlanadi: vafodor, gulzor, dildor, g‘amxor, shunqor, xaridor,

madadkor, asror, yor. Qofiyada takrorlangan bu yor fazilatlarini “ayrildim” radifi bilan tugaydi. Shu tufayli g‘azaldagi umumiy ruh, hayajon saqlanadi, saqlanadigina emas, qofiyalarga diqqat qilinsa, yor fazilatlarini turli sifat va o‘xshatishlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo shunday orqali g‘azaldagi asosiy hijron, alam tuyg‘usi o‘quvchiga borib yetadi, uni o‘z ta’siriga oladi. Nihoyat, o‘z navbatida juda ham o‘rinli ishlatilgan radif – “ayrildim” g‘azal umumiy ruhiga juda mos kelib, baytlar oxirida g‘amginlik tuyg‘usini ta’kidlab boradi. Yana bu yerda “din ayrildim”–“din ayrildim” tarzida unli, unsiz tovushlarning birikmasi va radifda “a” tovushining baland, ko‘tarinki sadosi g‘azalga alohida mayuslik, shu bilan birga, ohangdorlik, hazinlik, musiqiylik baxsh etgan. Endi ikkinchi g‘azalga o‘taylik. Bunday tuyg‘u birinchi g‘azaldagi tuyg‘uga tamoman qarama-qarshi, hijronga qarshi visol tuyg‘usi, ya’ni xursandlik ifodalangan. Bu yerda vazn va boshqa vositalar o‘zgacha tarzda tuzilgan. Ammo bu ikki g‘azalga o‘xshashlik ham mavjud, birinchi g‘azal go‘yo ruhimizni xafagarchilikka safarbar qilgandek, “qo‘yung yig‘layki” deb boshlansa, ikkinchi g‘azal boshidayoq “mujda”–xushxabar deb xursandlikka tortadi. Ammo bu ikki hodisaning keyin, hayajon jarayoni tadrijiy o‘sisda unchalik o‘rni yo‘q, butun tuyg‘u-hislar boshqa vositalar bilan beriladi. Ikkinchi g‘azalda ham mazmun, tuyg‘u ruhi psixologik holni tasvirlash asosida berilgan.

Agar birinchi g‘azalda hijron natijasida yordgi bo‘lgan fazilatlarini eslab, shularni esga solish yo‘sinida hazinlik tuyg‘usi ifodalansa, ikkinchi g‘azalda visol vaqtida, yor kelganda va uni ko‘rganda ro‘y beradigan tuyg‘ular ifodalanadi, yorning husni, latofati, tasviri birinchi galda turadi. Yorning shirin tabassumi, g‘uncha dahan, xo‘blar shohi tarzida, oshiqqa visol chog‘ida rohat, fayz baxsh etadigan fazilatlarini takrorlanadi. Qofiyalar ham huddi shunday – “sarvi xiromon”, “la’li durafshon”, “gulbargi xandon”, “sha’mi shabiston”, “yoru qadrdon”, “Isoyi davron”, “izzatli sulton” qo‘sha sifatli so‘zlar, iboralar bilan berilgan. Qofiyadagi bunday o‘xshatishlar, sifat-doshlar hammasi yor kelishi xabaridan oshiq ruhidagi xursandchilik, hayajon tuyg‘usini yorqin ifoda qiladi. “Kelur” radifi esa takror natijasida tuyg‘u, xursandchilikning asosiy sababini juda yaxshi ifodalaydi. Bu

yerda yana bir narsaga alohida e'tibor berish kerak. Vazn tuzilishi va baytdagi boshqa vositalar natijasida talaffuzda "ayrildim" radifi bilan "kelur" radifi o'rtasida ancha farq bor. Birinchi g'azalda butun tuyg'u, kechinma yordan ayrilish natijasida ro'y bergan hodisa bo'lganidan "ayrildim" radifi "a" tovushini birmuncha cho'zibroq talaffuz etishni talab qiladi. Bayt tuzilishi, baytlardagi umumiy ruh uni shunday o'qishga majbur etadi. Ammo keyingi g'azaldagi "kelur" radifi bu vazifani bajarmaydi. Bu ham g'azal mazmuni bilan bog'langan, shu maqsadni takrorlaydi, ammo ko'tarinki ruh, jarangli tovushlar bu g'azalda radifga emas, qofiyaga berilgan: "xiromon", "durafshon", "xandon"...Bu albatta tasodifiy emas, yorning kelishi uning oshiqqa zavq beruvchi husn va boshqa fazilatlar bilan bog'liq, shu sababdan, shoir bu yerda xursandchilik tuyg'usining asosiy sabablarini qofiya vositasida yorqinlahstiradi, ruh, tuyg'udagi xursandchilik qofiyadagi so'z va tovushlar orqali ifodalanadi.

Hijron va visol tuyg'ularini bu xilda psixologik tarzda, ya'ni hijron vaqtida yorning fazilatlaridan ajralishni bo'rttirish, takrorlash, visol umidi vaqtida yorning zavq bag'ishlovchi yaxshi fazilatlarini bo'rttirish, takrorlash usuli shu tuyg'ularni real, jonli ifodalash uchun eng maqbul yo'ldir. Shu sababdan bunday tuyg'ularni ifodalaganda Ogahiy ko'p vaqt shu psixologik usulni ishlatadi. Yana bir misol:

Toki bo'ldim ul labi jonbaxsh dilbardin judo,
 Bo'ldilar jonu ko'ngul men zoru muztardin judo.
 Tushkali ul yuzdin ayru bo'lmisham mahvu adam,
 Zarra ul yanglig'ki bo'lg'ay mehri anvardin judo.
 Ne ajab sarvu sumanga boqmasin, eybog'bon,
 Kim erurman bukun ul sarvi suman bardin judo.
 Bazmi vaslidin iz hosil no'sh la'li yetmasa,
 Jannat ahlig'a na haz gar bo'lsa kavsirdin judo.

 Ogahiyning ashkidur rahmat sahobi yomg'uri,

Yo rab, oni qilma bir dam didai tardin judo¹.

Bu gʻazalda ham sevgi bilan bogʻliq judolik tuygʻusi ifodalanadi. Bu gʻazal tuzilish jihatidan “Ayrildim” radifli gʻazaldan farq qiladi. Bu yerda har baytning birinchi misrasi oshiqning yordan ajralish tufayli kechirayotgan ogʻir ahvolini ifodalasa, har baytning ikkinchi misrasi oʻxshatish tarzida oshiqdagi iztirobni izohlaydi, yorqinlashtiradi. Ammo bu yerda ham judolik, uning natijasida yordagi “jonbaxsh lab”, “shirin kalom”, “mehr anvar”, “shakkar”, “sarvu sumanbar” kabi fazilatlardan ajralish natijasi yuzaga kelgan xafagarchilik tasvirlanadi. Bu gʻazalda ham taʼsir kuchi koʻproq radifga yuklatilgan. Gʻazal mazmuniga muvofiq tushgan radif–“judo” koʻtarinki talaffuzni talab qiladi. Har ikki gʻazaldagi oʻxshashlik ana shu xilda, ammo mazmunni ifodalash usuli, tuzuli tamoman boshqacha. Ogahiyning qaysi gʻazalini olmaylik, undagi mazmunga mos vazn ishlatilgan. Shu yoʻsinda gʻazallarda rang-baranglik paydo boʻladi, ular takror tusini olmaydi, oʻquvchini zeriktirmaydi.

Gʻazalfa radif ishlatish oʻzbek mumtoz adabiyotida juda qadimdan anʼanaga aylangan. Oʻzbek mumtoz poyeziyasining yirik va mohir namoyandasi Lutfiy gʻazallarida radifning ajoyib namunalarini mavjud:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma ,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma,
Hijron kechasi charxi falakka yetar,ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.
Hattoki, qilich kelsa boshimgʻa eshigingizdin
Yoʻtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Shu sodda, goʻzal gʻazalda “xoh inon, xoh inonma” radifi katta rol oʻynaydi. Gʻazalning asosiy mazmunida oshiqning maʼshuqaga boʻlgan chuqur tuygʻusi

1 “Ogahiy devoni”, 10-bet.

nihiyat mubolag‘ali tasvir etiladi. Radif misraning yarmidan ko‘pini tashkil etadi. Gap radifning katta-kichikligida emas, uning fikr, tuyg‘u jarayonida tutgan o‘rnida. Shoirning mohirligi, san‘atkorligi ham shundaki, radif shunday katta bo‘lsa-da, g‘azaldagi asosiy tuyg‘uni to‘la ifodalashga hech zarar yetkazgan emas. Aksincha qarama-qarshi fikr takrorlanib kelgan bu radif o‘ziga xos ravishda tuyg‘uni ta’kidlaydi; shoir aytmoqchi bo‘lgan hayajonni juda yorqin ifodalaydi, nihoyat, shu xildagi radif bu g‘azalga alohida san‘at–musiqiylik baxsh etgan. Radifdagi har ikki so‘z mustaqil ma’noga ega va har ikki so‘z mustaqil ma’noga ega har ikki so‘z ma’no e’tibori bilan bir-biriga qarama-qarshi, ammo bu qarama-qarshilik shoir mahorati tufayli fikr, tuyg‘u, ifoda ta’sirini ravshanlantirishga xizmat qilgan.

Navoiy ijodida ham radif ko‘p qo‘llangan, Ogahiy bu an’anani davom ettiradi. Ogahiy lirikasida ham radif bilan tugallanadigan g‘azallar ko‘p. Ular rang-barang bo‘lib, hamma joyda g‘azalning asosiy mazmunidan kelib chiqadi va g‘azal emotsiya ta’sirini kuchaytirishga, shu yo‘sinda, she’r mazmunini yorqinroq ochishga xizmat qiladi.

Biz yuqorida keltirgan misollarda vazn bilan birga radif haqida ham qisqacha gapirib o‘tdik. Yana birmuncha misollarga murojaat qilamiz:

Etib vasling‘a bo‘ldi barcha olam shod, man qoldim,
Dami bo‘lmay firoqing bandidin ozod, man qoldim,
Topib shirin so‘zingdin muddailar kom ila rohat,
Ko‘rub kofir ko‘zingdin zulm ila bedod, man qoldim.

Shu g‘azalda boshqa vositalar bilan birga g‘amginlik tuyg‘usini berishda “man qoldim” radifi nihoyat katta rol o‘ynaydi. G‘azalning har bir misrasi hayajon, tuyg‘u harakatini juda real, ravon ifodalaydi. Har misradagi “shod”, “ozod”, “bedod” kabi qofiyalar shunday tuzilganki, bu qofiyalar so‘zdagi bir necha unli tovushni baland ko‘tarib, cho‘zib aytishni talab qiladi, chunki baytdgi hayajon tuyg‘usi qofiyada kuchayadi. Qofiyada hayajon tadrijiy ravishda ko‘tarila boradi, ammo shu pauzadan so‘ng radifda talaffuz sustlashadi. Radif o‘z ma’nosi va

tovushlar tuzilishi, talaffuzi bilan bu afsus va nadomat tuygʻusini saqlab kuchaytirib boradi.

Radif tarkibidagi “man” va “qoldim” soʻzlarini ayrim-ayrim mulohaza qilsangiz, albatta, shu gʻazaldagi tuygʻuni hech ifodalamaydi. Ogahiy oʻz mahorati tufayli bu soʻzlarga goʻyo yangi maʼno bagʻishlaydi.

Radif tuzishda shoir mahorati chuqur yoki sayoz mazmunli bir ikki soʻz ishlatishda emas. Radif kuchi, taʼsiri uning gʻazal va baytdagi vazn, umumiy mazmunga qay darajada bogʻlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan, radifda shoir mahorati orqali har qanday soʻzlar: ism, feʼl va hokazolar ancha chuqur maʼno kasb etishi, sheʼrda katta oʻrin tutishi mumkin.

Koʻz ermas, jonu koʻnglum etmakka balodur bu,
Qosh ermas, javr bedod oʻqlarin otmoqqa yo dur bu.

.....

Yetushkach koʻyinga, tong yoʻq, tanimgʻa toza jon etsa,
Ki hajr anduhi muhlik dardigʻa dorishshifodur bu¹.

Bu parchada radif–“dur bu”. Alohida-alohida qaraganda bu soʻz ahamiyatsiz, ammo u sheʼrda nihoyat muhim oʻrin tutadi, agar shu radif boʻlmasa, baytlar va maʼno ham toʻla chiqmaydi, umuman, gʻazal, vazndagi tuygʻular toʻla ifodalanmaydi. Yana birinchi baytdagi “yo dur bu “ dagi “yo” tovushi kontekstda oʻq yoy maʼnosini beradi.

Chu qildi orazu qadding tamosho bulbulu qumri,
Gul ila sarv sari boqmas also bulbulu qumri.

Havoii sarvu gul qilmas, nedinkim bogʻ aro koʻrgach.

Yuzu qadding havosin qildi paydo havosin qildi paydo
bulbulu qumri².

¹ “Ogahiy devoni”, 176-bet.

² Oʻsha devon, 202-bet.

Bu yerda radif – “bulbulu qumri”, ammo bu parchadagi radif yuqorida aytigan bayt va g‘azaldagi umumiy vazifadan boshqa yana bir muhim rolni bajarib kelgan, u poeziyaning muhim omil hamda badiiy ifoda vositalaridan biri bo‘lgan mubolag‘a sifatida hamkelmoqda

Yana:

Kuysa olam bo‘lma hayron, o‘tlig‘ afg‘onimg‘a boq,
O‘tlig‘ afg‘onim taajjub qilma, jonimg‘a boq.
Qumrin mahzun kibi har nolam maddini,
Man qilma, jilvai sarvi xiromonimg‘a boq¹.

Bu g‘azalda radif “boq” so‘zidir. Ogahiy g‘azallaridan ko‘pgina radifli g‘azallar keltirish mumkin, ammo bunga hojat bo‘lmasa kerak. Ogahiy nihoyat istedodli va mohir san’atkor, u o‘z ijodida hamma poyetik vositalardan, shuningdek, radifdan ham juda yaxshi foydalangan. Uning g‘azallaridagi radiflar xilma-xil. Unda hamma so‘zlardan o‘rinli foydalangan. Shuning natijasida Ogahiy g‘azallarida trafaret yo‘q. Uning har g‘azali o‘ziga boshqa, o‘z go‘zalligiga ega. Har bir g‘azal ko‘zlangan maqsadlarni o‘quvchiga yetkazadi. Masalaning muhimi shundaki, shunday qaraganda radif go‘yo g‘azalning mazmunini belgilab beradi. Chunki oraz, ko‘z suv kabi juda aniq fikrlar ifoda qilgan radiflar borki, shunday qaraganda u g‘azallardagi mazmungo‘yo faqat shu fikr atrofida boradi. Keltirilgan misollardan ko‘rdikki, Ogahiy tuzilish asosida ish ko‘radigan shoirlardan emas. U hamma shakllarni juda mahorat bilan mazmunga, o‘z maqsadiga bo‘ysundiradi. Agar shoir konkret ifodalovchi radifga biron boshqa fikrni qo‘shmoqchi bo‘lsa, u holda radif ishlatadi. Shu ravishda radifdan mazmunustunlik qiladi. Chunki vazn va qofiya kabi radif ham she‘rdagi mazmun, his, tuyg‘uni ifodalash vositasidir. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan misollarda “bog‘”, “xil’atdur”, “so‘z”, “ko‘ngul”, “ta‘ma” va boshqa radifli g‘azallarda qancha chuqur ijtimoiy fikrlar bayon qilinganini angladik.

1 “Ogahiy devoni”, 117-bet.

Ogahiy ishqiylirlikasida his tuyg'ularni ifodalashdagi vositalarga munosabati uning realistik ruhdaagi yo'nalishi, dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq hodisadir. Ogahiy lirikasida kuylangan ma'shuqa qandaydir abstract ideal mahbuba emas, u kishilar hayotida mavjud faktlarga asoslangan tuyg'u, kechinmalar ta'siri natijasida yuzaga kelgan hodisadir. Shu sababdan Ogahiy tasvirlari, o'xshatishlari konkret. Bu jihatdan u, hatto, Navoiydan ham farq qiladi. Navoiy lirikasida mahbuba nihoyat ideallashtirilgan. Shu sababdan ularni tasvirlash unchalik konkret emas.

Mumtoz adabiyot nazaryasida formalism hodisasi nihoyat kuchli bo'lganidan, shoirlar o'z ijodlarida tasvir vositalariga ham ortiq e'tibor berganlar. She'r yozganda muvafaqqiyatli chiqqan yangi o'xshatish namunasi ustida juda ko'p bosh qotirganlar. Aslida poetik mahorat deb o'shanday formal narsani tushunganlar, yana yor yuzi quyoshga, oyga, ko'kka, qaddi sarvga, xoli hinduga o'xshatilgan va hokazo, va hokazo. Shu o'xshatishlar juda to'g'ri deb topilgan, an'ana bo'lib qolgan, bundan chetga chiqish she'riyatga xilof deb hisoblangan. Bu narsa she'riyatda konkretlikni yo'qotib, ma'lum shablonga olib kelgan. Ogahiy o'sha maktab va o'sha an'anaga asoslangan, shuning uchun Ogahiy lirikasi qancha konkret bo'lmasin, uning ayrim g'azallarida, tasvir vositalarida o'sha an'ananing kuchli ta'siri borligini, mumtoz adabiyotda mavjud shablon bo'lib qolgan o'xshatish, sifatlash namunalarini ham ko'ramiz:

Maskan aylamish ul yuz uzra chashmi sohirlar,
Vah, nedin ekan kirmish jannat ichra kofirlar.
Xollarmudur oyo jabhasida ul oyning,
Yo'qsa hindudin kelmish chin oro musofirlar.
Lablarig'a gar shogird o'lsa ayb emas Iso,
Kim olardur o'lgonga jon berurda mohirlar¹.

Shu keltirilgan misolda an'ananing kuchli ta'siri yaqqol aks etgan. Xol qoralig'i tufayli Hindistondan kelgan musofirga, yorning labi go'yo o'likka jon beruvchi

¹ "Ogahiy devoni", 65-bet.

Isoga, yorning zulfi ajdarga o'xshatilgan va hokazo. Bu xildagi o'xshatishlar mumtoz shoirlar ijodida ko'plab uchraydigan shablon obrazlardir. Bularda konkretlik yo'q, bu o'xshatishlar bilan yuqoridagi keltirilgan jonli kartina, harakatlarda berilgan o'xshatishlar orasida nihoyat katta. Shu sababdan g'azallar ta'sir etish kuchi o'rtasida ham katta tafovut bor.

Yor go'zalligini mubolag'ali ifodalagan ayrim g'azallar tasviriga ham o'sha an'ananing salbiy ta'siri ko'rinadi:

Yuzing avji sabohatda mahi anvarg'a o'xshaydur,
So'zing xoni malohatda tuzu shakkarga o'xshaydur.
Musaffo ko'ying ichra jilva qilgan chehrai oling,
Eram bog'ida ochilg'on guli ahmarga o'xshaydur.

Yana:

Ul oy ruxsorikim ondin hama olam munavvardur,
Latofat osmoni avjida xurshidi anvardur.
O'rilgan ikki zulfi jonu ko'nglum qasdin etmakda,
Sarosar jismi pechu tob topqon ikki ajdardur.

Bu xil o'xshatish, mubolag'alar quruq bayon asosida tuzilgan. San'at uchun eng to'g'ri yo'l – narsa va hodisaning ta'sirini berishdir. Ogahiy mubolag'a va tasvirlarida jannat, do'zax, obi kavsar, hur, pari va hokazo tariqasida hozirgi zamon avlod uchun hech qanday tasavvur bermaydigan so'zlar ham uchraydi. Bular hammasi davr va an'ana ta'sirlaridir.

Ogahiy lirikasi nihoyat ta'sirchan. Uning lirikasini o'qir ekan, kishi hech qanday zo'rlik, mashaqqat mahsuli tuyg'usini sezmaydi. Ulat go'yo buloqdan ravon oqib chiqadi. Bunga Ogahiy mahorat orqasida, ya'ni g'azalda ko'rsatilgan maqsadga barcha she'riy vositalar, formal talablarni bo'ysundirish natijasida erishgan.

Ogahiy g'azallari darhaqiqat chuqur ilhom natijasidir. Shoirga bu ilhomni bag'ishlagan real hayot, ulug' gumanizm va xalqqa xizmat qilish g'oyasidir. Ana

shunday olijanob maqsadni ko'zlayotganligi, faqat shu maqsad uchun shoirlikni vosita qilganligi tufayli Ogahiy chuqur mazmunli, ta'sirli, badiiy yuksak g'azallar yarata oldi. Buning uchun o'zbek tili boyliklaridan, o'zbek tili xususiyatlaridan yaxshi foydalandi. Uning barcha ijodida mazmun birinchi navbatda bo'lib, shakl unga bo'ysundirildi. Bu jihatdan ham Ogahiy o'zbek xalqi o'tmish adabiyotida yaxshi asarlar yaratgan istedadli shoir sifatida faxrli o'rinni egallaydi.

X U L O S A

Ogahiy lirikasi haqida dastlabki fikr va mulohazalarimiz oxiriga yetay deb qoldi. Ogahiy ijodi mazmunan juda chuqur, keng va o'ziga xos ajoyib mahorat namunalariga boy. Uning ijodini o'rganish bundan so'ng ham juda ko'p ilmiy xodim va adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga tortishi shubhasizdir.

Ogahiy lirikasida dastlab Navoiy maktabi, umuman, inson, mehnatkash omma hayoti, kun ko'rish masalasi markaziy o'rin egallaydi. Shu jihatdan Ogahiy lirikasi reaksiya diniy-mistik qarashlarga, bu oqimdagi adabiyot vakillari ijodiga tamoman qarama-qarshidir. Ogahiy lirikasi o'z mazmuni bilan dunyo lazzatini kuylash doirasida ham qolmadi. Hayot, tabiat go'zal, ammo bu hayotdan foydalanishga yo'l qo'ymaydigan g'ovlar ko'p, haqsizliklar ko'p. Ogahiy bu g'ovlarni, haqsizliklarni ko'rdi, buning sabablarini axtardi. O'zining bir g'azalida dunyo, hayotni ta'riflar ekan:

Davrondin agar, ey dil,
Etsa sanga bir rohat,
Chekmakka muhayyo bo'l,
Yuz kulfatu ming mehnat,—

deydi. Uning dunyodan noroziligining asl mohiyati ana shunda. Chunki bu ulug' yurakli gumanist shoir ulug' idrok, aql egasi va chuqur nafosat tuyg'ularini, inson qandaydir noto'g'ri tuzilgan dunyoda azob-uqubatda yashayotganini seza bilgan. Ogahiy jamiyatdagi mana shu haqsizlik bilan kelisha olmaydi.

Ogahiy lirikasining biz uchun qiymatli tomoni shundaki, u hayotni chuqur tekshirar, haqiqatni axtarar ekan, hayotdagi haqsizlik, jabr-zulm mol-dunyo orqasida yuzaga kelgan ijtimoiy tengsizlik natijasida ro'y bergan hodisa ekanligini seza oldi. Shuning uchun Ogahiy lirikasida jamiyatdagi hamma qatlamlar, guruhalar bir xilda ifodalanmadi. Chunki ularning jamiyatdagi o'rni, turlicha.

Ko'r, Ogahiy, hunaru fozil qadrsizligini,
Ki qatg'ali oshig'a topmast ahli donnish dug'.

Yoki:

Xasosat ahlining komini gardun aylabon hosil,
Yeturgay doimo nokomlig'lar ahli himmatg'a.

Yoki:

Ogahiyg'a ne o'tun, ne luqma bordur, ne libos,
Holi gar budur, oni ayirg'usi jondin sovuq.

Yuqoridagi baytlarda xususiy mulk va ekspluatatsiya asosiga qurilgan barcha tuzumlarga xos bo'lgan hamda ana shu tuzum natijasida vujudga kelgan ijtimoiy tengsizlik nihoyat darajada to'g'ri ifodalangan. Bunday jamiyatda chinakam boylik yaratuvchi hunar va fazl egalari xor bo'lib, boylikni, hokimyatni to'plagan bir guruh nodon, johil kishilar lazzat ko'radi, rohatda yashaydi. Masalaning muhimi shundaki, Ogahiy haqsizlik asosiga tuzilgan jamiyatdan norozi bo'lish bilan birga, boylik orqasida o'zgalar mehnatidan foydalanuvchi barcha sinflarga nisbatan har doim salbiy munosabatda bo'ldi. O'zining qator g'azallarida boylar, ruhoniylar, amaldorlar, aristokratiyaning parazit hayotini ulug' nafrat bilan ifodaladi. Xususiy mulk asosiga qurilgan tuzum va ekspluatatsiya qiluvchi sinflarga xos mol-dunyoga xirs qo'yish, ochko'zlik, baxillik, tamagarlik, laganbardorlik kabi chirik axloq qoidalarini qoraladi.

Ogahiy idealida chinakam inson–halol mehnat bilan kun ko'ruvchi sof vijdonli, qanoatli kishi. Ogahiy o'z idealining mujassamini mehnatkash ommada ko'rdi. O'z ijodida ularni har doim ulug' muhabbat bilan kuyladi. Faqir, mehnatkash ommaning taqdirini o'ylash, ularning og'ir ahvoli haqida g'am chekish, ularning ahvolini yengillatish yo'llarini axtarish Ogahiy lirikasining mohiyatini tashkil etadi. Mana shu hodisa bizga Ogahiyini yaqin qiladi.

Ogahiy ijodiga xos bu ijobiy holni ta'kidlar ekanmiz, uning o'z zamoni va o'z davri farzandi sifatidagi kamchilik, qarama-qarshiliklaridan ko'z yummaymiz. Ammo uning ijodida yetakchi o'rin tutgan inson taqdiri haqidagi gumanizm g'oyalari uni o'z davrining ulug' siymosi qilib abadiy saqlaydi. Ogahiyning shu maqsadda yozgan asarlari va qilgan xizmatlari–unga o'zbek xalqi adabiyoti, madaniyati tarixida faxrli o'rinni egallash huquqini beradi.

Ogahiy o'z xalqi madaniyati va adabiyotini chuqur o'rgangan, uning qadrigimmatini bilgan yuksak saviyali, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan kishi bo'lgan.

Bu haqda xarakterli bir misol: Mahammad Rahimxon adabiyot bilan ancha qiziqqan kishi bo'lib, o'zi ham Feruz taxallusida she'rlar yozar edi. Uning saroyida ko'p vaqt shoirlar to'planib, g'azalxonlik qilardi. Odatda shunday suhbatlarda saroyda to'plangan laganbardor shoirlar xonning va bir-birlarining mazmunsiz, suyuq she'rlarini Navoiy ijodiga ham barobarlashtirganlar. Shunday majlislarda ishtirok qilgan Ogahiy bir kun bu ahvoldan darg'azab bo'lib, ularning nodonliklarini ta'riflab:

Navoiy ekdiyu o'rdi,
Fuzuliy mashoqin terdi.
Olardin so'nggi shoirlar
Olarining toshlag'anin terdi.

mazmunida to'rtlik yozadi. Naql etishlariga qaraganda, Ogahiyning bu o'tkir tanqididan g'azablangan xon uni majlisdan va saroydan haydaydi.

Bu narsa Ogahiyning Navoiy va Fuzuliy ijodiga qanchalik yuksak baho berganidan, o'ziga va boshqalarga nisbatan zo'r talabchan bo'lganidan dalolat beradi.

Ogahiy boshqa shoirlar she'rlariga bog'lagan muxammaslarida ham mazmun, ham shakl jihatidan o'zidan ilgari o'tgan Navoiy, Bedil, Fuzuliy va boshqalarning ijodiy saviyasiga erishishga harakat qildi. Bu sohada ancha muvaffaqiyat qozondi. Shu yo'sinda, Ogahiy o'z xalqi va boshqa qo'shni xalqlar adabiyotidagi eng yaxshi traditsiyalarni saqlab qoldi, boyitdi taraqqiy qildirdi. Chunki Ogahiyning adabiy merosga munosabati quruq taqlid bo'lmasdan, ijodiy yondashish edi. Ogahiy lirikasi haqida so'z borar ekan, uning bu xizmatini alohida ta'kidlamay bo'lmaydi.

Ogahiy lirikasi hanuzgacha o'z ta'sir kuchini saqlab kelmoqda. Chunki u ma'lum tarixiy sharoitda o'z xalqining ahvolini, ruhini, tushunchasini real yorita bildi. Ogahiy lirikasida real hayotdan olingan xilma-xil tuyg'u, hislar, kayfiyatlar,

fikrlar o'lmas obrazlarda juda san'atkorona ifodalanadi. Ogahiy hayotga sog'lom qaraydigan, baland did egasi bo'lgan shoir edi. Shu sababdan uning o'z vatani tabiat manzaralarini, turli fasllarni ifodalagan g'azallari realligi tufayli hali bugun bizga chuqur estetik zavq beradi.

Ogahiyning xalq, jamiyat haqida fikr yuritgan, davr ilg'or kishilarining o'z zamonasidan norozilik tuyg'usini ifodalagan, o'sha zamonda turli ruhiy azobda bo'lgan kishilar ahvolini bayon qilgan g'azallari haligacha bizda chuqur hayajon tug'diradi. Shu g'azallar orqali o'sha davr ilg'or kishilarining ruhiy azoblarini tasavvur qila olamiz. Baniy basharning o'lmas mavzu –sevgi bilan bog'liq bo'lgan nozik, yoqimli orzular, firoq, judolik, visol, sog'inish tuyg'ularini kuylagan g'azallari bizni maftun qiladi, allalaydi, quvontiradi yoki xafa qiladi, hatto, yig'latadi. Zehni o'tkirligi, nafosat tuyg'usi sog'lomligi tufayligina Ogahiy inson qalbini shuncha uzoq zamonga qadar qitiqlaydigan, hayajonga soladigan o'lmas obrazlar yarata olgan.

Ogahiy lirikasini tekshirar ekanmiz, Chernishevskiyning shoirlar ijodiga nisbatan qo'ygan quyidagi talablarini eslamay mumkin emas:

“Shoirlar kishilarni hayot haqida olijanob tushuncha va olijanob tuyg'ular bilan oziqlantirishga rahbarlik qiladilar, ularning asarlarini o'qir ekanmiz, barcha qabih, yaramas narsalardan nafratlanishga o'rganamiz, barcha ezgulik, go'zallik maftun qiladigan narsa bo'lganini anglashni o'rganamiz, ularni , faqat olijanoblikni sevishni o'rganamiz, ularni o'qib yaxshiroq, olijanobroq, sof ko'ngilliroq bo'lamiz”.

Ogahiy lirikasi shu talablarga to'la javob beradi desak xato qilmaymiz. Chunki uning g'azallari bizda nozik his, nafosat baxsh etish doirasida qolmaydi. Uning lirikasi bizning ong, tushunchamizga ham kuchli ta'sir etadi. Uning deyarli hamma g'azallarida ham sevgi bilan bir qatorda, hayot haqida, hayotdagi kishi taqdiri haqida, yaxshilik-yomonlik, yovuzlik-ezgulik, haqiqat-haqsizlik haqida, umuman, kishi aql-idroki haqida biron ibratli fikr bayon qilinganini ko'ramiz.

Ogahiyning har bir g'azali asosida haqiqatga intilish, insonga muhabbat, inson taqdiri uchun g'amxo'rlik orzusi yotadi. Bizning davr uchun bu eng qimmatli

xususiyatdir. Chunki haqiqatni hurmatlash, inson taqdiri mustaqil hayot qurish uchun kurashayotgan xalq kishilari axloqning mohiyatini tashkil etadi. Ijodidagi ana shu gumanizm tufayli, shu yo‘ldagi xizmati tufayli Ogahiy bizga yaqin, biz bilan birga yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Ijtimoiy - siyosiy adabiyotlar

1. I . Karimov. Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.
2. I . Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, 2008 y.
3. I . Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent, 2009 y.
4. I . Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, 1995 y.
5. I. Karimov. Turkiston umumiy uyimiz. "O'zbekiston nashriyot", Toshkent, 1995 yil.
6. I. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 yil.
7. I. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura,- Toshkent, O'zbekiston, 1993 y.
8. I. Karimov. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. Tarix, ma'rifat, ma'naviyat, 2008 y .

II Ilmiy adabiyotlar

10. Abdullayev. V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1964 y.
11. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.- Toshkent, Fan, 1978 y.
12. Adabiyot- ruhiyat mulki (Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan). –Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000 y.
13. Alimuhamedov. A. Antik adabiyot tarixi. "O'qituvchi", Toshkent, 1960.
14. Boboyev. T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002 y.
15. Davronova. Sh. Yozuvchining ijodiy individualligi// O'zbek tili va adabiyoti.- 2001.-№ 6.-B 59-61
16. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Toshkent, 1995 y.
17. Hamdam. U. Yangilanish sog'inchi. Toshkent, 2007 y.
18. Hayitov. A. "90 yillar o'zbek lirikasida an'ana va shakliy izlanishlar", Filologiya fanlari dissertatsiyasi aftoreferati, 2004 yil.

19. Karimov. B. Abdulla Qodiriy. Toshkent, 2006 y.
20. Karim. B. Qodiriy qadri. Toshkent, 2003 y.
21. Karimov. N. v.b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999 y.
22. Karimov. G. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1966 y.
23. Karimov. H. Insoniy iztiroblar va tuyg'ular haqqoniyligi // Sharq yulduzi.- 2003.- № 3. – B. 153-154.
24. Karimov. H. O'zlikning badiiy ifodasi.// O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2003, - 11—iyul.
25. Majidiy. G'. Ogahiy. Toshkent, 1963 y.
26. Mirzayev. S. Halqchil adabiyot yo'lida // Muloqat. – 2000 - № 5.-B. 33-35.
27. Nasrimiz ufqlari Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974 y.
28. Normatov. U. Umidbaxsh tamoyillar. 2000 y.
29. Oybek Navoiy haqida, "Ozbek tili va adabiyoti masalalari", 1961, № 1,2
30. A. Qayumov. Inqilov va ijod "O'z dav nashr", Toshkent, 1964 yil.
31. Qo'shchonov M. Badiiy mahorat masalalariga doir, "Toshkent davlat universitetining ilmiy asarlari", Toshkent, 1960.
32. Rasulov. A. Yangi zamon-yangi qahramon. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978 y.
33. Sarimsoqov. B. Adabiyotda shakl va mazmun mutanosibligining ayrim muammolari // O'zbek tili va adabiyoti.-1997.-№ 6.-B.-8-12.
34. Sarimsoqov. B. Badiylik asoslari va mezonlari. Toshkent, Fan, 2004 y.
35. Sattorova. G. Inson irodasining badiiy-tasviriy talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – 2001.- № 6.- B. 55-56.
36. Sodiq. S. Ijodning o'ttiz lahzasi. Toshkent, 2005 y.
37. Tog'ayev. O. Adiblar va janrlar. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti 1976 y.
38. Umurov. H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, Sharq, 2002 y.

39. Xalibekov. A. Zamon, adabiyot, qahramon // Hurriyat.- 2001. -2-8 may.
40. Xolmurodov. A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2003.- № 5. – B. 68-70.
41. G‘afurov. A. Badiiylik bezavol yangilik. Toshkent, 2007 y.
42. Sharafiddinov. O. Adabiy tanqid va yangi tafakkur // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-2001.- 19 oktabr.
43. Sharafiddinov. O. Ijodni anglash baxti. Toshkent, 2004 y.
44. Sharafiddinov.O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy tanqidiy maqolalar. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989 y.